



Hamdamova Nargiza Tursunbayevna – 1983 yili Andijon shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi.

Oldin musiqa maktabida, so'ng Andijon Davlat san'at bilim yurtida fortepiano va musiqa nazariyasi sinfida tahsil oldi.

2001 yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi «musiqashunoslik» mutaxassisligi bo'yicha o'qidi.

Hozirki kunda O'zDK «Musiqqa san'ati» ixtisosligi bo'yicha aspirantura bosqichida ta'lim olmoqda.

Respublika va ommaviy axborot vositalarida ilmiy va publisistik maqolalari chop etilgan

NARGIZA HAMDAMOVA

# LATA MANGESHKAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Nargiza Hamdamova**

**LATA MANGESHKAR**

*(Monografik ocherk)*

Toshkent  
2010

140

*Mazkur monografik ocherk O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mas'ul muharrir: **Z. Nasullayev**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi tillar  
kafedrası dotsenti

Taqrizchilar: **I.A. G'aniyeva**, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent v.b.  
**M.R. A'zamova**, O'zDK "Milliy cholg'u" IICHEL ilmiy  
xodimi.

Ushbu monografik ocherkda XX-asrning mashhur xonandasi va  
bugungi kunda ham ijodiy faoliyatini davom ettirib kelayotgan benazir ovozi  
sohibasi Lata Mangeshkarning hayoti va ijodiy faoliyati batafsil yoritib  
berilgan.

© Nargiza Hamdamova, 2010

## MUALLIFDAN

Ma'lumki, har bir xalq o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lishi bilan  
birga, o'tmish an'analari bilan sug'orilgan milliy ohanglari ba kuylariga  
egadir. Odatda, musiqani qaysi bir millatga tegishli ekanligini bilib olish u  
qadar mushkil emas. Chunki, uning ohanglarida xalqning qadriyatlarini,  
milliy an'analari va ruhiyatini anglatuvchi unsurlar mujassamdir.

Sharq mamlakatlarining musiqa madaniyati ham o'ziga xos  
tomonlari, ohanglari bilan ajralib turadi. «Uzoq moziyda,– deb yozadi T.  
G'ofurbekov,– G'arb sivilizatsiyasining choq markazi Rimda ilk bor «Lux  
viene dell Oriental» – «Nur Sharqdandur» deyilgan...»<sup>1</sup>. Darhaqiqat, Sharq  
musiqasi har bir davrning olimu-fuzalolari uchun jumboqlar kaliti bo'lib  
kelgan. Ana shunday qadimiy va falsafiy musiqiy an'analarga ega bo'lgan  
yurt Hindiston diyoridir. Sharq mamlakatlari orasida Hindiston, o'zining  
betakror musiqa madaniyati, o'tmish an'analari bilan sug'orilgan milliy  
ohanglari va ko'hna tarixiga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Zero, hind  
musiqa merosi qadimiy an'alar bilan sug'orilgan ulkan ummon va o'z  
xalqining o'tmish tarixini ohanglaridagi in'ikosidir.

Hind va O'rta Osiyo, shu jumladan o'zbek xalqining madaniy  
aloqalari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manba'larning  
guvohlik berishicha, Yunon Baqtriya ( mil. av. 250-130 y) davlati tashkil  
topgandan buyon, O'rta Osiyo xalqi hind madaniyatiga, hind xalqi esa  
O'rta Osiyo xalqi madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. «Ikki  
xalqning madaniy aloqalarida ayniqsa, yaratilgan risolalar tarqalishi va  
savdosi katta o'rinni egallaydi»,<sup>2</sup> deb yozadi Muhammad Ahmad.

Tarixni, o'sha davrda bo'lib o'tgan ijtimoiy, iqtisodiy – siyosiy va  
madaniy voqealari va yangiliklarini yozma manba'lar orqali bilib olish  
mumkin. Shu bilan bir qatorda yaratilgan manba'lar orasida musiqaga  
bag'ishlangan risolalar ham mavjud. Bu esa inson hayotida musiqaning  
qanchalar ahamiyati katta bo'lganligini ko'rsatadi. Musiqa insonning ichki  
dunyosini shakllantiradi. U ezgu his-tuyg'ularni ifodalashda muhim  
vositalardan biri sifatida gavdalanadi. Xitoy musiqasi tarixida «Musiqa  
borliqni harakatga keltiruvchi kuch»<sup>3</sup> degan hikmatli so'zlar qayd  
qilingan.

O'tmishdan har bir davr o'zining ma'naviy – ma'rifiy darajasi, ilm  
fanga munosabati, ayniqsa, ijodiyot mahsullariga ega bo'lgan. Ijod ahli  
hayotning turli tomonlarini yoritish, hayot uchun zarur va kerakli omillarni

1. T. G'ofurbekov. «Sharq va Beethoven» O'zbekiston adabiyoti va san'ati
2. M. Ahmad. «Hind va o'zbek madaniyati» Guliston jurnali. 1994, №1
3. S. B. Azizov. «Tovushdan kuygacha» «Sog'lom avlod uchun» 2003y, №5

tadqiq etishni o'z burchlari deb bilganlar. Turli fan mutasaddilari o'z sohalarini rivojlantirish yo'lida izlanganlar. XI asrda yashab ijod etgan buyuk Muallimi Soniy – Al Farobiydan tortib toki, XX asr allomasi Abdurauf Fitratgacha musiqa ilmi bilan shug'ullangan qator shoirlar, olimlar va musiqashunoslar o'tganlar. O'z sohaları fanlari qatorida musiqa ilmiga tegishli tadqiqotlarni olib borib, musiqiy risolalarni buyuk faylasuflar yaratganlar. Har bir musiqiy risola muayyan tartibga asoslanib yaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Unda musiqaga tegishli nazariy ma'lumotlar, tarixiy manbalar, cholg'ular haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda albatta, ijrochilar xususida ham ma'lum darajada so'z yuritiladi. Bu esa musiqaning xalq orasida nufuzi, musiqachilarning esa ardoqda bo'lganligidan dalolatdir.

Risolalarda davrning ilg'or sozandayu – xonandalari haqida yozish ham an'ana tusiga kirgan. Ularda sozandalar yoki xonandalar xususida eng kerakli ma'lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, ularni san'atdagi darajasi belgilab qo'yilgan, amalga oshirilgan xizmati qayd etilgan. Bu an'ana hozirgacha muayyan tartibda davom etib kelmoqda. O'z davrida mashhur bo'lgan musiqachilar haqida hattoki rivoyatlar bitilgan. Bu esa ularning xalq orasida taniqli bo'lganligini namoyon etadi. O'zbek musiqasida Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Hojixon Boltaev, mulla To'ychi Toshmuhamedov, Madrahim Sheroziy, Komiljon Otaniyozov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Orifxon Xotamov, Kamoliddin Rahimov va boshqalar; eron musiqasida Dariush Safvut, Shajarayon, Fozil Jamshidiy; arab musiqasida Umm Kulsum, Saloh al Mahdiy; hind musiqasida Lata Mangeshkar, Ravi Shankar, Mukesh, Muhammad Rafi kabi ko'pdan ko'p xonandalar haqida risolalar bitilib, ularning hayoti va ijodiy faoliyati haqida muayyan ma'lumotlar bayon etilgan. Davrning benazir san'atkorlari ijodini o'rganish har doim ham ilm – fanning taraqqiyot masalalaridan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Xalqlar orasida dostonga aylangan san'atkorlardan biri, betakror ovoz va san'at sohibasi Lata Mangeshkardir. Ushbu risola Lata Mangeshkarning hayoti va ijodi, ijro uslubini yoritishga bag'ishlangan. Shoyad bo'lg'usi san'atkorlar undan bahramand bo'ladilar. O'zlarining ijrolarini umumbashariyat an'analari xos yaratsinlar.

## 1. LATA MANGESHKAR HAYOTI

Hindiston bulbuli, hind xalqi orasida «Malikayi Tarannum», ya'ni hind kuylari malikasi nomini olgan Lata Mangeshkar XX asr hind musiqa san'atini rivojiga munosib hissa qo'shgan benazir xonandalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

1929 yil 28 sentyabr Hindiston xalqi uchun unutilmas sanalardan biriga aylandi. Chunki, Markaziy Hindistonning Madhiya Pradesh<sup>4</sup> shtatini Indour shahrida qo'shiqchi – aktyor Dinanath oilasida quvonchli kunlardan biri, ya'ni Lata Mangeshkar dunyoga kelgan kun.

Lata Mangeshkar avlodining ildizlari Xardikarlar<sup>5</sup> sulolasiga borib taqaladi. Bu oila xudojo'yilar oilasidandir.

Bhaykambhatta Abhishckining o'g'li Ganeshbhatt (Lataning bobosi) kuchli ovoz sohibi bo'lgan. Ganeshbhattning diniy ma'ruzalarini tinglash uchun ham «Mangesh» ibodatxonasiga yig'ilishar edi. Odamlar uning nafaqat ma'ruzasidan, balki sehrli ovozidan ko'proq zavq olardilar. Dinanath uning katta o'g'li edi.

Dinanath ulg'ayib voyaga yetgach, e'tiqodi doirasida o'zining nomiga aniqlik kiritish maqsadida, uni o'zgartirishga ahd qiladi. «Mangesh» ilohiy nomiga «kar» so'zini qo'shib aytilishini istaydi. «Kar» so'zi qadimiy sanskrit tilida «qo'b» ma'nosini anglatadi.

Uning fikricha bu nom «Mangesh-ilohiy avlodini qo'li» degan ma'noni anglatadi.



*«Dunyoda yetti mo'jiza bo'lsa, ularning sakkizinchisi - Lata Mangeshkar»*

*Anjaat Ali Xan*

4. Mandhia Pradesh – Hindistonning eng yirik shtallaridan biridir. Maydoni 45 ming km.  
2. Shtatning poytaxti Bhopal.  
5. Xardikar – Hind xalqining yirik-yirik avlodlari, taniqli namoyandalari bo'lgan. Xardikar ana shunday yirik dovrug' chiqqan avlodlardan biri edi.

Dinanath Mangeshkar – mohir sozanda, taniqli aktyor va marathi<sup>6</sup> tilida kuylovchi xonanda. Hindistonning hozirgi Sandali shahri Dinanathning nomi bilan ham mashhurdir. Chunki, u Nagpurdan to Kandesh shaharlari orasida mashhur badavlat odam sifatida tanilgan.

Dinanathning aktyorlik faoliyati juda sermahsul bo'lgan. U zamonasiga mos holda teatr namoyishlarini tashkil etar edi. Shu davrda kunduzi spektakllar qo'yish an'anasini boshlaydi. U doimo qirollikning opera uyida tomoshalar tashkil etardi. Chunki, shu davrda vaqt taqozosi bilan Hindiston buyuk Britaniya qaramog'ida edi. Ularning an'anasida esa kunduzlari spektakllar qo'yish nufuzli tadbirlardan hisoblangan. Shu bois bo'lsa kerak bu an'ana hozirgi davrgacha o'z mavqei saqlab qolgan. Ayni vaqtda ham marathi tilida kunduzlari spektakl qo'yish udumga aylanib qolgan.

Dinanath oilasida ketma-ket qizlar va bitta o'g'il farzand dunyoga keladi. Ya'ni, Lata, Uma, Asha, Mina, Xriydanatlar.

Lata – ular orasida eng to'ng'ich farzand. Lataning musiqiy qobiliyati 6 oylik davridayoq namoyon bo'lgan. Uning ovozi bulbul ovozigacha o'xshatar edilar. U musiqani juda tez ilg'ab olar edi va chiroyli kuylardi.

Kunlarning birida otasi o'z guruhi bilan yo'lakda «sarangi»<sup>7</sup> cholg'usini chalib mashq qilardilar. Kuyni tinglab bo'lgach, Lata beixtiyor ovoz chiqarib ushbu kuyni kuylab otasining ijrosini qaytara boshlaydi. Buni ko'rib turgan guruh a'zolari hayratdan «Bu bola – mo'jiza»<sup>8</sup> deb yuboradilar.

Dinanathning qiziga bo'lgan mehri juda kuchli edi. U qo'llarida qizini ushlab o'tirib kuylar, qizi esa u bilan birgalikda kuylar edi. Bundan zavqlangan ota kuylashni davom ettirardi. Ota va qiz shu tarzda o'yin o'ynashar va shu bilan musiqadan mashq qilishardi. Qizning musiqiy xotirasi shu darajada yaxshi ediki, bir marotaba eshitgan kuyi xotirasiga muhrlanib yoddan chiqarmas edi.

6. Marathi – Hindistonda 17 ta so'zlashuv tili mavjud bo'lib, ularning biri marathi tilidir. XIII asrda paydo bo'lgan.

7. Sarangi – Hind xalq cholg'usi. Asosan jo'mavozlikda qo'llaniladi. Bu cholg'u kamon bilan ijro etiladi.

8. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y., 62 b.

Dinanathning faoliyati asosan konsertlar bilan bog'liqligi sababli u ko'proq ijodiy safarlarda bo'lardi. Ko'p hollarda safarlarga u oilasini olar va birga sayohat qilardilar.

Lata 4 yoshga to'lganda Indour shahriga ko'chib keladi. O'sha davrda Maharaj Indour shahri tongi shehnay<sup>9</sup> ovozi bilan uyg'onar edi. Kunlarning birida Lata o'zidan – o'zi yig'lashni boshlaydi. Uning yig'isidagi ohang taajubki, o'zi eshitgan va shehnay sozida ijro etilgan «Bandish» raga<sup>10</sup>si ohanglari asosida edi. Bu Lataning juda kuchli xotirasi borligidan dalolatdir.

Dinanath nafaqat san'atkor balki ustoz sifatida tanilgan namoyanda. U hind xalqining bebaho musiqa boyliklaridan biri bo'lmish ragalarni o'z o'quvchilariga o'rgatar edi. Otasi o'z shogirdlariga saboq berayotgan vaqtda Lata hamisha otasining yonida o'tirar edi. Mashg'ulotlarning birida Dinanath darsni bo'lib, bir necha vaqtga tashqariga chiqish kerak bo'ladi. Shogirdi ustozni chiqib ketishiga qaramasdan mashqni davom ettirardi, bu davrda Lata 5-6 yoshda bo'lgan. Shogird «Puriya Dhanshrii» ragasini ayrim joylarini buzib ijro etayotganda Lata ijroni to'xtatib, uning xatosini ko'rsatib beradi va to'g'ri ijro etishni ko'rsatib beradi. Bu albatta yosh qizchani ziyakligidan, xotirasi kuchliligidan va iste'dodliligidan dalolat berardi.

Voqeani kuzatib turgan otasi qizining raga to'g'risidagi tasavvuri to'g'ri ekanligini ko'rib hayratda qoladi va Shevanti (onasi)ni chaqirib: «Tasavvur qiling-a, biz o'z uyimizda iste'dodli musiqachini tarbiyalayotgan ekanmiz!»<sup>11</sup> deb quvonadi.

Shundan so'ng u Lataning musiqa savodi bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi.

Lata kunni erta tongdan tanpura<sup>12</sup> sozida mashq qilish bilan boshlar edi. Uning birinchi darsi «Puriya Dhanshrii» ragasi bilan boshlanadi.

9. Shehnay – Hind cholg'u asobi. Fors tilidan olingan bo'lib, ikki so'zning birlashtirishi «shoh» va «nay». Ya'ni musiqiy cholg'ular sardori.

10. Raga – sanskrit tilida rang, xoxish, atrof ma'nosini bildiradi. Hind mumtoz musiqasida tad haqidagi asosiy tushunchani beradi.

11. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y., 62 b.

12. Tanpura – Hind milliy torli cholg'usi

Odatda, o'quvchi ilk saboqlarini ola boshlaganida, avvalo cholg'uni ijro imkoniyatlarini o'rganish maqsadida ma'lum bir mashqlarni (mashq qilib) amalga oshiradi undan so'ng kichik asarlarni, agar ustoz o'quvchisini imkoniyatlari doirasida murakkab asarni ijro eta olishiga ko'zi yetsagina, murakkab asar o'rgatishi mumkin. Lata esa o'zining birinchi darslaridan murakkab shakldagi asarlarni o'rgana boshlagan. Chunki, u otasining o'quvchilariga berayotgan saboqlarida ishtirok etganlarini o'zida ko'p narsalarni ilg'ab olishga ulgurgan edi. Dinanath o'z ishlarini tamomlab tongga yaqin uxlashiga qaramasdan qizlari Lata va Mina tomonidan uyg'otilar edi. Chunki, otasi ularga tanpura cholg'usini sozlab berishi lozim edi. Tanpura cholg'u ijrochiligini Lata va Minaga otasi o'rgatar edi. Lataga birinchi ustoz va musiqa sirlarini birinchi bo'lib o'rgatgan – otasi Dinanath bo'lgan. Xonandalikka bo'lgan ishtiyoqi esa to'satdan va o'ziga xos boshlangan.

6 yoshli Lata otasi bilan teatrga borgan paytda ilk bor mashhur va xushovoz xonanda Seygal<sup>13</sup> ovozini eshitib, uning ovozigga maftun bo'lib qoladi. Seygal ovozidan ta'sirlangan qiz «Men katta bo'lsam Seygalga turmushga chiqaman»<sup>14</sup> deb oila a'zolariga e'lon qiladi.

Uning ijodkorlarga xos Seygalga bo'lgan muhabbati bir umrga saqlanib qolgan. U o'zini ijodkor sifatida shakllanishida Seygalning hissasi katta deb hisoblaydi. Chunki, Lata xonanda sifatida o'z yo'lini topib olishiga qadar Seygal xonandalik yo'lida qo'shiqlar ijro etgan.

Otasi qiziga musiqa sirlari bilan bir qatorda umuminsoniy munosabatlar haqida nasihatlar beradi. Bu haqida Lata o'z xotiralarida shunday eslaydi: «Bu so'zlarni otam gapirganida men 8 yoshda edim. «Siz to'g'ri yo'lda ketayotganingizda va to'g'ri ish tutayotganingizda, birovlarining maslahatiga muhtoj bo'lib qolmaysiz»<sup>15</sup>. Bu so'zlar kichik qiz uchun anglab yetish murakkab bo'lganligi sababli u yana quyidagi so'zlarni qo'shib qo'yadi: «Men sizga kuylashni o'rgatganim uchun men bilan ijro etishga uyalyapsiz. Bunga aslo yo'l qo'ymang. Har safar men bilan qo'shiq ijro etayotganingizda «U mening guruyim»<sup>16</sup> degan fikrdan yiroq yuring. Siz bilan kuylayotgan sizning otangiz yoki

13. Seygal – (1904. 04.04 - 1947. ) Hindistonning taniqli dong taratgan, afsonaviy san'atkori, atoqli xonanda.

14. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y. 63 b.

15. Shu kitobdan 65 b.

16. Guru – Hind tilida «ustoz» demakdir.

guruhingiz emas, balki guruhingizdagi jo'rnavor ijrochilaringiz deb qabul qiling. Faqatgina o'z-o'zingizdan qo'rqing. O'zingizdan so'rang, tutayotgan ishingiz to'g'rimi? Agar o'zingizdan – «ha» javobini olsangiz hech narsani uzoq o'ylamasdan olg'a yuravering»<sup>17</sup>. (Tarj.Hamdamova.N)<sup>18</sup>

Lata 7 yoshga to'lganda ijodiy safar tufayli oilasi bilan Mamad shahriga ko'chib keladi. Va shu yerda ilk bor sharoit taqozosi bilan aktrisa sifatida, Narad ismli aktyorning rolini sahnada ijro etadi. Bu uning ilk bor sahnada aktrisa va xonanda sifatida ijro etgan roli edi. Otasi bolalarining kelajagini o'ylaydi. Ularni ilmi va bilmli bo'lishlarini istaydi. Shu bois u farzandlarini, jumladan, Latani ham qadimiy hind tili hisoblangan sanskrit maktabida saboq olish uchun o'qishga beradi.

Latanning iste'dodi otasidan o'tgan bo'lsa ajab emas. Dinanath yuqori darajadagi san'atkor bo'lishiga qaramasdan u hamisha boshqa bir ijrochini maqtardi. U katta yurak egasi edi. Dinanath o'z iste'dodi kuchli ekanligiga ishonardi. Lekin, bu ishonch uni manmanlik darajasiga olib kelmagan. Uning ushbu xislatlari qizida ham mujassam. Masalan, agar biron bir ijrochi ragani buzib ijro etsa, buni qabul qila olmas va konsertni tark etishga majbur bo'lar edi. U bir qo'shiqning o'zida o'nlab ragalarni unsurlarini qo'shib ijro etishi mumkin edi. «Kunlarning birida, – deb yozadi «Lata Mangeshkar a biography» kitobida, xonanda ayol: – Dinanath mendan oldin kuylaysizmi yoki mendan keyinmi?» deb savol berganida, u kulib – «Men sizdan oldin kuylashga qarshi emasman, lekin, mening ijroimdan so'ng ijro etishga jur'atingiz yetarmikan?!»<sup>19</sup> - deb javob bergan. (tarj.)

Lata 9 yoshida otasining ijodiy safarlaridan birida Salapur shahridagi Nutan teatrida «Soore mee vandile» qo'shig'ini ijro etadi.

11 yoshda «Khazanchi» film ishlab chiqaruvchilar tomonidan uyushtirilgan ko'rik-tanlovda ishtirok etadi va ikki yo'nalish bo'yicha o'zini ko'rsatishga muvassar bo'ladi. Biri xonanda va ikkinchisi sozanda, har ikki yo'nalish bo'yicha ikkita medal sovrindoriga aylanadi. Ulardan biri «dilruba»<sup>20</sup> medali edi.

17. Shu kitobdan 65 b.

18. Bundan keyingi barcha tarjimalarni ham Hamdamova N. tomonidan qilingan.

19. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y. 75 b.

20. Dilruba – ( dilruba) Hind torli cholg'usi

Latanning ota-onasi o'z bolalarini asrab-avaylab va ularga ko'proq bilim berishga intildilar. Har qanday voqealarni bolalariga salbiy ta'sir etishidan asrardilar. Ayniqsa, odamlarga xavfdan darak beruvchi «sirena» o'sha paytda juda ko'p yangrardi. Latanning onasi, hattoki, bolalari shu tovushni eshitishni ravo ko'rmas edi. Barcha farzandlarini quloqlarini berkitib qo'ygisi kelar edi. Lekin, otasining bolalaridan ko'ngli to'q bo'lib, bunday tovushlar ularning mustahkam ruhiya-tiga ta'sir eta olmasligiga ishonardi.

Dinanath ijodini ayni samarali davriga kelganda spirtli ichimlikka ruju qo'yadi. Natijada, uning barcha ishlari orqaga ketadi va ishchi xodimlariga o'z vaqtida maosh to'lay olmaydi. Shunda ishchi xodimlar ikki oylik maoshini to'lashini talab qilib keladilar. Buni eshitgan Dinanath uy ichiga kirib tanpura chalib, kuylay boshlaydi. G'azablangan ishchilarning g'azabi yanada oshib, uy ichiga bostirib kira boshlaydi. Sekin-asta uy ishchilar tomonidan talon-taroj qilinadi.

Shu voqeadan so'ng Dinanath Lataga spirtli ichimlikka yaqinlashmaslikka va'da beradi.

Dinanath vafotiga yaqin juda nochor yashagan. Buni o'limi oldidan oilasiga qilgan vasiyatidan bilish mumkin: – «Men butun hayotim davomida 100 lakh<sup>21</sup> rupiy<sup>22</sup> topibman, baribir hech narsaga ega emasman. Sizlarga o'zimni tanpura sozimni va qo'shiqlarimni meros qilib qoldirayapman. Meni shunga ishonchim komilki, bular bilan bir kun sizlar katta san'atkor bo'lib ketasizlar. Mangeshkar ilohi sizlarni o'z panohida asraydi»<sup>23</sup>.

Bu so'zlar Lataning qalbiga muhrlanadi. Keyinchalik uning otasiga bo'lgan barcha his-tuyg'ularini P.Salvaram tomonidan yaratilgan marathi tilidagi qo'shiqda ochib beradi.



Lata Mangeshkar 8 yosh.

1942 yil 24 aprel juma kuni mashhur olamdan ko'z yumdi. 32 yoshli Shevantini, 13 yoshli Latani 42 yoshli Dinanath tark etdi. Dinanath vafotidan oldin rafiqasiga farzandlari faqat san'atkor bo'lishini vasiyat qilib ketadi. Vasiyatni amalga oshirish uchun onasi qo'ldan kelganicha harakat qiladi va bu harakatlar zo'yr ketmaydi. U farzandlariga: – «Har biringiz boshqa kasb haqida o'ylay ko'rming, faqat musiqa»<sup>24</sup> – deydi. Onasining qo'lidan faqat tanpura sozini sozlash kelar edi xolos. Bolalari musiqa bilan shug'ullanishni xohlaydimi, yo'qmi bu uni qiziqitmas edi. Onasi ularni musiqa bilan shug'ullanishga va otasi ijro etgan mumtoz kuy va qo'shiqlarni ijro etishga undar edi. Agar kuy va qo'shiqlarda sayqal va turli bezaklar chiqmay qolsa, bolalarini bir necha soatlab shug'ullanishga majbur qilar, agar kutilgan natijaga erishilsa shirin so'z ularga mukofot edi.

Ularning oilasida otasidan qolgan bir odat bor edi. Bu mehnat va ishonchga yo'naltirilgan amallar edi. Bunday amallar bajarilishi shart bo'lgan. Shuning uchun farzandlari hamisha rioya qiladigan amallarni belgilab olardilar. Jumladan:

- 1) har kuni musiqa bilan shug'ullanish;
- 2) har yili muntazam ravishda otasining xotira marosimida «Shraodha» ragasini kuylash;
- 3) otasi vafoti kuni mehmonlarni chaqirish, yubiley musiqiy dasturini o'tkazish;
- 4) besh farzand ham musiqadan boshqa kasbni tanlamaslik.

Hozirgi kunda Dinanathning barcha farzandlari san'atkor

Balki, otasining vasiyati, onasining sa'i-harakatlari tufayli Lata, Asha, Usha, Mina va Xreydeynathlar hozirgi kunda yetuk san'atkor bo'lib yetishib turgan bo'lsa ajab emas. Uning ustiga hozirgi kungacha hech qaysi farzandi yuqoridagi zikr etilgan amallardan birortasini unutgan emas. Har yili otasi vafot etgan kuni musiqiy dastur uyushtirilib katta konsert tashkil etiladi.

Shunday xotira kechalaridan biri 1944 yili aprel oyida Dinanath vafotining 2 yilligi munosabati bilan uyushtiriladi. Lekin, bu dasturni tayyorlash oila a'zolari uchun bir qancha mushkulliklarni keltirib

21. 100 lakh rupiy – 1 lakh – 100 ming, 100 lakh – 1 million.

22. Rupiy – hind valyutasi

23. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 85 b.

24. Shu kitobdan 85 b.

chiqaradi. Chunki, ommaviy dasturni tayyorlash, otasining hamkasblarini to'plash oson ish emas edi. Ustiga mablag' bilan bog'liq.

Shu bois bu mas'uliyat yana 15 yoshli Lata va uning onasi zimmasiga tushadi. Yubiley Kalhapurning teatr saroyida bo'lib o'tadi. Lata otasining portretini va tanpura sozini sahna markaziga qo'yadi. Kutilmaganda, Dinanath o'z qo'llari bilan yasagan va qizlariga shu sozda chalishni o'rgatgan soz yo'qolib qoladi. Mazkur dasturda mashhur san'atkor, Lataning eng sevimli xonandasi Kundal Ley Seygal ham ishtirok etadi. U bu dasturda o'zining mashhur «kya jnoon kya jadu hai» qo'shig'ini ijro etib beradi. Uning bu dasturda ishtirok etishi dasturni nufuzini yanada oshiradi. Shundan so'ng Lata hayotida mashaqqatli, lekin samarali va yutuqli davr boshlanadi.

13 yoshida Lata Vinayak<sup>25</sup>ning film ishlab chiqarish kompaniyasiga ishga qabul qilinadi.

1943 yili Kalhapurga oilasi bilan ko'chib keladi. «Badi» filmida sur'atga tushish jarayonida Lata va Nurjaxon do'stlashadi.

1944 yili «Radjbhay» hind filmi uchun o'zining birinchi hind tilidagi «Aap ki sewa mein» («Sizning xizmatigizda») qo'shig'ini ijro etadi. Bu Lata uchun ham sinov ham ulkan xonandalik faoliyatini ilk qadamlari edi.

1945 yili Bombay, hozirgi Mumbai<sup>26</sup> shahriga film ijodkorlari bilan birga keladi. Bu yerda ham Vinayak Lataga juda katta yordam beradi, chunki filmda unga yuklatilgan qo'shiqlar soni juda ham kam edi. Shu bois bo'lsa kerak, Vinayak unga boshqa banperlar uchun kuylashga ruxsat beradi.

1947 yili Vinayak vafot etadi. Shundan so'ng Lataning dunyosi qulayotgandek bo'ladi, chunki Vinayak uning oilasi uchun asosiy moddiy tayanch edi. Vinayak rejissyorligi ostida Lata marathi tilidagi «Chimkula Sansar» (1943y.), hindi tilidagi «Vari maa» (1945 y.), «Jivan Yatra» (1946 y.), «Subxandra» (1946 y.), «Mandir» (1947 y.) filmlarida qo'shiqlar kuylab, rollar ijro etgan.

1945 yil Lata Mumbai shahriga ko'chib kelgandan so'ng ham musiqadan saboq olishda davom etadi. U otasining vafotidan so'ng

25. Vinayak – otasining yaqin do'sti, kinokompaniyaning boshliqlaridan biri.

26. Mumbai shahri nomi Hindiston inglizlar tomonidan bosib olinganidan so'ng «Bombey» nomiga o'zgarib ketgan. Hozirgi kunda bu shahar yana o'zining asl «Mumbai» nomini tiklagan.

ustoz Aiman Ali Xon Bhendibazarbalu, ustoz Amanta Xan Devosvale va pandit<sup>27</sup> Tulsidas kabi mashhur ustoz san'atkorlardan musiqa ijrochiligi sirlarini o'rganadi.

1949 - 50 yillari Raj Kapur bilan hamkorlikda «Mahal», «Andaz», «Barsad» filmlarida Khelchand Prakash, Noushad va Shankar Jeykishan kabi kompozitorlarning qo'shiqlarini ijro etishga muvassar bo'ladi. Bu esa Lataning hayotidagi mashhurlik uchun qilingan ilk bosqich edi. Shundan so'ng uning obro' darajasi sekin asta oshib boradi. Bir qator kompozitorlar Lata uchun qo'shiqlar yoza boshlaydilar.

20 yoshda qiyinchiliklar ortda qolib, sekin asta Lataning hayoti iziga tusha boshlaydi. Bu davrga kelib uning Raj Kapur bilan bo'lgan ijodiy hamkorligi avj oladi. Raj Kapurning barcha filmlari uchun kadr ortida Lata Mangeshkar ayol aktrisalar uchun qo'shiqlar ijro etadi. Ularning ijodiy hamkorligi 1988 yilgacha, ya'ni Raj Kapurning vafotigacha davom etadi. Bu davr ichida Lata Raj Kapurning juda ko'p filmlarida qo'shiqlar ijro etadi. Xonandalik amaliyoti xonandani mashhur qilish bilan birga ijodiy ijro uslubining kamoloti uchun ham xizmat qiladi. Lata muntazam va har doim yangi – yangi qo'shiqlar ijro etardi. Lata Raj Kapur bilan hamkorlik qilgan yillari davomida o'zining mustaqil uslubiga ega bo'ladi. Shu davr ijodining eng qizg'in damlari edi. Hattoki, kuniga 5 tadan qo'shiqlarni ovoz yozish studiyasida yozgan kunlari ham bo'lgan.

1973 yili Lata ilk bor chet elga ijodiy safar qiladi, ya'ni Angliya davlatiga boradi. Uning ijodiy uchrashuvi Londonning «Qirollikning Albert Xolli»sida bo'lib o'tadi. Lataning ijodiy faoliyati kino bilan bog'liq bo'lganligi sababli xorij mamlakatlariga ijodiy safari (juda) ko'p bo'lmagan. Chunki, Lataga kino kompozitorlari tomonidan birin-ketin kelgan takliflar uni chet el safarlariga chiqishiga imkon bermas edi. Lekin, shunday bo'lishiga qaramasdan u bir nechta mamlakatlarda o'zining konsert dasturi bilan chiqishga muvassar bo'lgan. Shunday konsertlardan bir qatori Dubay, Ispaniya, Gayana, Torontoning Kanda shahrida, Xyustonning Texas shtatlarida bo'lib o'tadi.

Lata Mangeshkar san'atni oila qurishdan ham ustun qo'yganligini e'tirof etib o'tish joizdir.

27. Pandit – Hindi tilida ilmiy daraja.

## II. IJODIY FAOLIYATI

### § 1. Xonandalik faoliyati

Lata Mangeshkarning xonanda sifatida shakllanishida, xonadondagi unga bo'lgan munosabat muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qanday xonanda bo'lib yetishishi esa aynan padari buzrukvorining ustozlik ta'sirini beqiyosligidadir.

Chunonchi, buni bir nechta jarayonlar bilan bog'lash to'g'riroq bo'ladi. Avvalo otasining ustozligi va qizining iste'dodini ko'rib xonandalikka undashi bo'lsa, ikkinchidan, Lataning atrofidagi ijodiy muhiti ham juda muhim edi. Uchinchidan, bu tabiiy jarayon, ya'ni uni asl (original) dilbar ovoz sohibasi ekanligidadir. To'rtinchidan, ijodiyotda juda muhim bo'lgan til va adabiyotga munosabati. Beshinchisi, mana shu barcha xislatlarni ro'yobga chiqaradigan jarayon, ya'ni mehnatkashligi, intiluvchanligidir. Zero, eng murakkab asarlarni maromiga yetkazib ijro etish katta kuch va mehnat talab qiladi.

Latanning otasi qizidagi iste'dodni buyukligini yoshlik chog'lari-dayoq payqagan edi. Shu bois, agar shu murg'aklik davridagi mumtoz adabiyot va musiqani mukammal o'rgansa, uning ustiga go'zal o'ziga xos ovoz bilan talqin etsa, bunday uyg'unlik faqat benazir san'atkor bo'lishga asos ekanligiga shubha qilmagan. Ana shunday umidlar og'ushida u adabiyot va musiqani qunt bilan o'zlashtiradi. Otasining nazorati ostida qizchada sinovli davrlar boshlanadi. U xonanda sifatida o'zini namoyish etishi lozim edi. Otasi qizining iste'dodini va xonanda sifatida sahnaga chiqq olishini ko'rib, katta ishonch bilan bunga sharoit yaratib beradi. Natyasangit<sup>28</sup>ning navbatdagi ijodiy safarlarini Solapur shahrida o'tkazmoqda edilar. «Solapur shahrining Nutan teatrida navbatdagi ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Dinanath 9 yoshli qizi Latani xonanda sifatida sahnada kuylashga undaydi. Ustozning bu qaroridan guruh a'zolari hayratda edilar va ayrimlari bunga qarshilik ham bildiradilar. Lekin, Dinanathning qarori qat'iy edi. Uni niyati amalga oshdi. Lata sahnada «Soore mee vandile»

(«Qahramonlar men sizlarning jasoratingiz oldida bosh egaman») qo'shig'ini ijro etdi. Bu Lataning xonandalik ijodida qo'yilgan ilk qadami edi. «Soore mee vandile» qo'shig'i murakkab usul asosida ijro etiladigan asar bo'lib, ijroda nafaqat ovoz yoki bilim, balki mahorat ham talab etardi. Lata esa buning uddasidan chiqardi. Bu yutuq Lataning qalbidagi ulkan orzularni amalga oshishiga ulkan turki bo'ldi. U sahnaga chiqib xoh «Soore mee vandile» yoki «Suhasua tuzhe manasi mohi ...» kabi mumtoz qo'shiqlarni ijro etar ekan, sahnaning o'zida, ijro jarayonida har bir harakatini otasining sinovidan o'tkazardi.

Odatda, hind mumtoz musiqa ijrochiligi sayqalga boy va badihaviy xususiyatga ega. Ayniqsa, har bir murakkab jumla talqin jarayonida o'zgacha badihaga uchrashi muqarrar. Chunki, bu holat mustaqil ijrodan kelib chiqadi. Lata harakatini ustozlari va otasining sinovidan o'tkazib olishni odat qilgan edi. Shu bois, u ham: «Mumtoz qo'shiqlar konsertlarida unga otasi yoki Bchaxkumari cholg'uda jo'r bo'lishardi. Har gal «taan»<sup>29</sup> nolasi ijro etilishi bilan, ko'z qiri bilan otasiga murojaatomuz qarar va otasidan tasdiqni kutardi». Otasining har bir ijodiy tasdiqi Lataga benazir kuch va ilhom bag'ishlagan. Chunki, u kuylayotgan qo'shiqlar oddiy usulda emas, balki ular darhaqiqat hind mumtoz musiqasining murakkab shakldagi usullar tizimiga mos ekanligi bilan ajralib turardi.

Latanning otasi unga nafaqat san'at sirlaridan, balki insoniylik saboqlarini berar edi. Bu o'gitlar Latani hayotida doimo kamtar inson bo'lishga, insoniylikni unutmazlikka undar edi. Shunday nasihatlardan birini, Lata 11 yoshga to'lganda Khazanchi film ishlab chiqaruvchilari tomonidan uyushtirilgan ko'rik-tanlovda g'olib chiqib, 2 ta medal sohibasiga aylanganda eshitgan edi: «Siz erishgan yutug'ingiz bilan uchib yuribsiz, bu esa yomon xislat. Chunki, siz hali ko'plab yutuqlarga erishasiz, hech qachon mashhurlik ketidan yugurmaslik kerak, u o'z qoshingizga o'zi keladi»<sup>30</sup>, deb ogohlantiradi. Shundan buyon Lata biror yutuqqa erishsa otasining nasihatlarini albatta yodga oladi.

Otasi qizining ovoz imkoniyatlarini ko'rib uni kelajakda mashhur xonanda bo'lib yetishishiga ishonch hosil qilgan. Darhaqiqat, bu yutuq

28. Natyasangit – Dinanathning teatr guruhining nomi.

29. «taan» – g'lisando tarzida ijro etiladigan usul.

30. Harish Bhimani. «In search of Lata Mangeshkar». «Lata babu». New Delhi 1995 y., 76. b.

Latanning oxirgi mukofoti emas edi. Aksincha, bu mukofotlarning birinchisi, ya'ni debochasi bo'lgan. U mukofotlar olamiga endi kirib borayotgan edi. Lata har safar biron-bir mukofotga ega bo'lar ekan, otasining bergan nasihatlarini yodga oladi.

Shu tariqa, Lata otasining o'g'itlari va san'at sirlarini o'zlashtirib voyaga yetadi.

Har bir xonandaning o'z ijrochilik xususiyatlari mavjud va ularning biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Lata Mangeshkarning ijrochilik amaliyotida, shunchalar mukammallikka erishishida, bir qator o'z uslubiga xos bo'lgan jihatlari shakllangan. Ana shunday o'ziga xos xususiyatlaridan biri qo'shiqni qaytadan o'z qo'llari bilan ko'chiradi va shundan so'ng bu qo'shiqni ijro etishga jazm etadi. Bu usul unga qo'shiqni kuylashdan oldin asar bilan yaqinroq tanishishga imkon beradi.

Ravi Shankar Latanning ijrochilik xususiyatlari haqida shunday yozgan edi: «Men san'atkorda ikki xil xususiyat bo'lgandagina uni hurmat qilaman, biri sezuvchanlik, ikkinchisi aqliy zakovat. Har ikkala xislat Latada mujassamdir»<sup>31</sup>. (Tarj.)

30.000 dan ziyod qo'shiq ijro etgan xonandaning o'zi yaratgan qo'shig'i yoki kuyi bo'lmasa, degan fikr bo'lishi albatta tabiiy. Lata o'z intervyularidan birida: «Men lirik ashula yoki kuy yarata olmayman, lekin har ehtimolga qarshi shu asarni yaratilishida menga berilgan imkoniyatlarni sarf etishim mumkin»<sup>32</sup> – deb o'zining ijodiy jihatlari e'tirof etadi.

Har bir kasb egasi o'z kasbi bilan shug'ullanishi lozim.

Xonandani xonanda qiluvchi omillar nozik hissiyot, dardli va tarovatli ovoz, ovoz diapozonining kengligi, ijro mahorati va h.k. Bu xislatlar xonanda iste'dodining kuchini, darajasini ko'rsatuvchi asosiy mezon deyish mumkin.

Lekin, nafaqat xonanda balki ijodkor boy, rang-barang, murakkab hayot sinovlaridan o'tgandagina iste'dod qirralarini namoyon qilishi mumkin. Chunki, onasiz farzand dunyoga kelmaganidek, boy hayotiy va ijodiy tajribasiz ijodni ham tasavvur qilish oson emas. Hayot

31. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar». New Delhi 1995 y, 315 b.

32. Shu kitobdan 215 b.

tajribasi esa xonandani ta'sirchanlik, kuzatuvchanlik mahoratini oshiradi. Lata Mangeshkar ham hayoti davomida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan. Shu bois bo'lsa kerak, ijro etgan barcha qo'shiqlarida teran dardli talqin mujassam topgan.

Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini lazzatli qiladigan - quyosh, yer va suv bo'lsa, yaxshi qo'shiqni paydo bo'lishi uchun yaxshi bastalangan musiqa, she'r va albatta mohir ijrochidir.

Lekin, shu bilan bir qatorda «Afsonaviy Lata» nomini olishda faqat kompozitor yoki shoimi sababchi qilib ko'rsatish xaqiqatdan ozmi-ko'pmi yiroq. Lata xonanda sifatida san'at olamiga kirib kelishidan oldin ham zabardast kompozitorlar Noushad, Anil Bisvas, Khemchandr Prokash, G'ulom Haydar kabilar Latanning hamkasblari ham san'at olamida o'z o'rinlarini topib bo'lgan edilar. Lekin ular Latani «xonanda sifatida shakllantirishdi» degan fikr mutlaqo no'rindir. Aksincha, agar Lata bo'lmaganida ayrim kompozitorlarning asarlari nodirlik darajasiga yetishmagan bo'lar edi degan fikrda esa, albatta xaqiqat bor. Chunki asarga umr va qanot baxsh etuvchisi bu uning ijrochisidir. Bu so'zlarimizga isbot tariqasida ayrim kompozitorlarning quyidagi so'zlarini keltirishimiz o'rindir.

Salil Chovudhuri: «Mening kuylarimni ijro etish mushkul, uni Latadan boshqa xonanda mukammal darajada ijro eta olmaydi»<sup>33</sup>.

Lata har bir qo'shig'ini mohirona ijro etishga harakat qiladi va u buning uddasidan chiqadi. U har bir qo'shiqqa kerakli vaqt sarflay olardi. Lekin, Lata murakkab ritmli yoki ohangli bo'lgan har qanday asarni ijro eta olardi. Bu haqida Ustoz Amir Xon<sup>34</sup> shunday deydi: - «Biz klassik musiqachilar erishmoqchi bo'lgan ijroga 3,5 soatda erishsak, Lata 3 daqiqada erishadi»<sup>35</sup>. Bu fikr Latanning o'ta zukkoligi hamda eslab qolish qobiliyatining benazirligidan dalolat beradi.

Lata Hindiston havo kuchlariga bag'ishlangan qo'shig'ini ijro etishda, qo'shiqni so'z va ritmi bir – biriga mos tushmaganligi unga bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. Lekin, uning mehnatkashligi bu qiyinchiliklarni yengib o'tishiga yordam beradi. Qo'shiq metri

33. Shu kitobdan 315 b.

34. Raju Bharatan «A Biographic Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 210 b.<sup>4</sup>

35. Harish Bhimani «Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 210 b.

murakkab bo'lib, uning so'zlarini almashtiradi va yarim tunda qo'shiq o'zining yangi shakliga ega bo'ladi. Lata uchun shuncha vaqtni kasbiy darajadagi izlanishlar uchun sarf qilishi ijodiy chanqoqlik demakdir.

Har qanday kompozitor asar yaratar ekan, uni o'z farzandi kabi benuqson bo'lishini istaydi. Uni kelajagi porloq bo'lishiga umid bog'laydi. Ijodkor ham o'z asarlarini muxlislariga betakror yangicha shaklda ko'rsatishni va ularning hayotlari umrboqiy bo'lib xit darajasiga ko'tarilishini orzu qiladi. Shu bois ular bu kuylarni tinglovchilarga yetkazishda mashhur hamda mohir ijrochilarni tanlaydilar. Yoki tavakkal qilib, yangi ijrochiga murojaat qiladilar. Ko'rinib turibdiki, qo'shiqlarni mashhur bo'lishida ijrochilarning ahamiyati va o'rni katta.

Kompozitor Modan Mohal: «Siz (Lata) borligingiz uchun men qo'shiqlar yozaman»<sup>36</sup> – deydi. Sadjad (kompozitor) esa: «Hindiston kompozitorlari repertuarlaridan Lata ijro etgan qo'shiqlar olib tashlansa nima qoladi?!»<sup>37</sup> – deb yozadi. (tarj.)

Lata o'zining butun ijodiy faoliyati davomida bir qancha kompozitorlar bilan hamkorlikda ishladi. Bular: G'ulom Haydar, Khemchandr Prokash, Anil Bisvas, Noushad, Ramchandr, Modan Mohan, Kxayyam, Salil Chovudxuri, Ravi Shankar, Barman, va boshqalar. Bular orasida Datta Dovjikeraning marathi, hindi tillarida yozgan qo'shiqlarini Lata ijodining boshlang'ich davrida ijro etgan.

San'atkor o'z muxlisleri qalbidan nafaqat iste'dodi bilan, balki xulqi, odobi, shirin so'zi bilan ham joy egallaydi. Chunki har bir muxlisning sevimli san'atkori doimo diqqat markazida turadi. Uning har bir harakatini nazardan chetda qolmaslikka harakat qiladi.

O'ylanmasdan qilingan biron bir nojo'ya harakat yoki so'z muxli, shinavandada salbiy fikr qoldirishi ehtimoldan holi emas. Lata Mangeshkar o'z muxlislarini nafaqat o'z qo'shiqlari bilan balki shirin ovozi, mehrlil so'zlari bilan maftun etgan bo'lsa ajab emas.

U kuylayotganda tinglovchilarni o'zining dardli ovozi bilan, sehrlab qo'ysa, so'zlayotganda allalayotgandek his uyg'otadi. Ziyat

36. Harish Bhimani «Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 146 b.

37. Shu manbadan.

38. Raju Bharatan «A Biography Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 315 b.

Aman ham unga ushbu ta'rifni berishgan: – «Kichik, qorachadan kelgan, uzun sochli, uning «Namashkar» (assalomu alaykum) so'zi va ta'zimida qandaydir bir sir bordek. Uning ko'zlari hech qachon sizning ko'zlaringizga tik boqmaydi. Oddiy ko'zlarda ilohiy ovoz yashiringan»<sup>38</sup>. (Tarj.)

Lata Mangeshkar sermahsul ijodiy faoliyati davomida bir nechta tillarda qo'shiqlar ijro etgan. Hindistonda davlat tili-hindi tili. Bundan tashqari 17 ta, so'zlashuv tili, 1600 ta enimalopediya (sheva) mavjud (bengal, tamil, teluga, panjob, kashmir va boshqalar). Jumladan, sanskrit<sup>39</sup>, marathi, urdu<sup>40</sup>, hindi tillarida qo'shiqlar kuylagan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Lataning millati – marathi. Shu bois bo'lsa kerak ko'p qo'shiqlari marathi tilida ijro etilgan.

U qat'iyatli har qanday qiyinchiliklarni yengib o'z maqsadiga erishish uchun intiluvchi matonatli ayol. Uni aktyor Dilip Kumar<sup>41</sup> bilan muloqoti ham uning bu xislatlaridan dalolat beradi.

1947 yili kompozitor Bisvas Dilip Kumarga «kelajakdagi maxarashtrian xonanda»<sup>42</sup> deb tanishtirganda, Dilip Kumar unga «urdu tilini bilmasligi Latani hech qachon maxarashtrian qila olmaydi» degan so'zlari Lataga juda og'ir botadi va bu so'zlar unga chaqiruvdek ya'ni da'vat etayotgandek ta'sir etadi. U shu onlardan boshlab urdu tilini faqat bir maqsadda Dilip Kumar nohaq ekanligini isbotlab berish uchun o'rgana boshlaydi»<sup>43</sup>.

Uni har xil tillarda qo'shiqlar ijro etishga majbur etgan jarayonlardan biri bu kino san'atidir. Ya'ni, kadr ortida kuylagan filmlari bilan bog'liqdir. Chunki, Lata faqat hindi tilidagi filmlaridagina emas, balki marathi va boshqa tillardagi filmlarda ham qo'shiqlar ijro etgan.

Uning bu ijodiy qirrasini haqida «kino musiqaga qo'shgan hissasi» bo'limida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

39. Hindistonning eng qadimiy tili. Butun hind afsonalari va badiiy adabiyotlar sanskrit tilida yozilgan.

40. Urdu – Pokiston davlat tili

41. Dilip Kumar – aktyor, 1922 yil 11 dekabrda Saera Bonu shahrida tug'ilgan.

42. maxarashtrian - xonanda – maxarashtrialik degan ma'noni anglatadi.

43. Raju Bharatan «A Biographie Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 85 b.

Lata Mangeshkar ijodiy faoliyati davomida turli janrlarda qo'shiqlar kuylab kelgan. Albatta bu qo'shiqlar filmlarda ijro etgan qo'shiqlari bilan bog'liqdir. Bizga ma'lumki, film syujetidan kelib chiqqan holda, kompozitor u yoki bu janrda kuy bastalaydi. Shunday janrlardan biri «bxajan» va «g'azab» janrlarida kinolar uchun kadr ortida qo'shiqlar ijro etgan.

Bhajan – Hindistonda janrlar orasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Bu janrda asosan qo'shiqlar yoziladi. Bu diniy xarakterdagi qo'shiq bo'lib, unda Alloh, ilohlar madh etiladi.

Lata bu janrlarda ko'plab qo'shiqlar ijro etgan. Bu janr Lata ijodida nafaqat konsertlarda ijro etgan qo'shiqlarida, balki filmlar uchun ijro etgan qo'shiqlarida ham mavjuddir. Shunday filmlardan biri «Meera» (Mening) filmi bo'lib, unda «Airi na prem divani» qo'shig'i bhajan janrida yozilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, «Meere» filmi uchun kuy va qo'shiqlarni Ravi Shankar<sup>44</sup> bastalagan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har bir konserti «Ishvar», ya'ni «yaratgan» ga, «iloh» ga bag'ishlangan qo'shiq bilan boshlanadi. Shunday qo'shiqlardan biri «Ram bhai Ram» bhajan janridagi qo'shiqdir. «Ram» bizga hind afsonaviy dostonlaridan<sup>45</sup> ma'lumki, u (Ram) ilohlaridan biridir.

Ro ma pa re na sa ga ma ga na ni re ma pa ma  
 re ma pa re ma pa sa ga ma re pa sa sa sa sa sa sa. O Ram... ji ba - ra  
 du-kh bi - na te - re la-gan me. Ba-ra du - kh bi - na  
 te-re la-gan me. Ba-ra du - kh ji - na sab kuchh chu-ra i me. No nin da-ni  
 me-ra mush-kil kar diya Ji - na ba-ra du-kh bi - na te-re la-gan

44. Ravi Shankar – 1920 y 7 aprel. Kompozitor, sektor sozining mohir sozandasi.  
 45. Ram ilohi haqida «Ramayana» dostonida berilgan.

me. Ba-ra du - kh bi - na o Ram ji - na ba-ra du - kh ji - na

*Ram ji bara dukh bina tere lagan me,  
 Bara dukh bina tere lagan me.  
 Bara dukh jina sab kuchh surayi me,  
 Me ne nindani mera mushkil kar diya jina.  
 Bara dukh bina tere lagan me  
 Bara dukh bina  
 O Ram ji bara dukh jina.*

Ushbu qo'shiqni umumiy holatini olganimizda rondo<sup>46</sup> shakliga yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan qo'shiqning umumiy shakl (sxema) tarkibi quyidagichadir.

A + B + A + C + A

A – naqorat, B va C – qo'shiq bandlari. Asar, fa lidiy ladida yozilgan. Qo'shiqda cholg'u qismi bog'lovchi vazifasini o'taydi. U xonanda ijrosida keladigan keyingi band yoki naqorat qismini boshlanuvchi asosiy tonini tayyorlab berishga xizmat qiladi.

G'azal-so'zining lug'aviy ma'nosi she'riyatdagi maxsus janni anglatish bilan birga, musiqa ijrochiligi san'atida aytim cholg'u janrini ham ifodalaydi. G'azal so'zining lug'aviy ma'nosi – sevisht, muhabbat izhor etish tushunchasini anglatadi. U lirik falsafiy mazmundagi keng diapozonli kuy rivojiga egaligi bilan ajralib turadi. G'azal hang rivojini batafsilligi hamda metro-ritmik jihatdan ancha murakkabligi va unda ma'lum darajadagi badiha elementlarining mavjudligi bilan belgilanadi. G'azal ancha mukammal va keng ko'lamli, muayyan shakldagi lirik aytim-cholg'u janr.

G'azal – zamon talabi doirasidan rivojlanishi bilan birgalikda, bir necha o'n yilliklardan beri Hindiston-Pokiston kinofilmlarida ham juda keng qo'llanib xalqqa manzur bo'lib kelinayotgan kino qo'shig'i sifatida ham alohida ahamiyatga egadir. Natijada film g'azallari degan o'ziga xos yo'nalish ham yuzaga kelinishiga sabab bo'ldi. G'azalning muayyan

46. Tahlil qilingan barcha asarlar shakli va ladlari yevropa musiqa nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan.

obrazilarni ifoda etishi, film qahramonlari xarakterini ham ochib berishda qo'l kelganini e'tirof etish joizdir.

Lata Mangeshkar ijro etgan qo'shiqlari orasida g'azal janrida kuylangan qo'shiqlar ham oz emas. Bu g'azallar sof g'azal janrida emas, balki film g'azal janrlari deyilsa to'g'riroq bo'ladi.

G'azal janri ilk bor filmda Lata Mangeshkar tomonidan ijro etilgan. Bu «Umrao Jaan» filmi bo'lib, Lata Mangeshkar g'azal janrini hayotiy filmlarda davom ettirgani uchun «Yilning eng yaxshi xonandasi» milliy mukofotiga sazovor bo'ladi. G'azal janridagi filmda ijro etilgan qo'shiqlardan biri «An yadh» filmida «Aap ni nazon he janiya...» qo'shig'idir. Bu qo'shiq kompozitor Modan Moxan tomonidan yozilgan.

M.Moxanning shunday qo'shiqlaridan biri «Kabhi-kabhi» (Ba'zan-ba'zan) nomli qo'shig'i maxsus kino kartina uchun – g'azal janrida yozilgan.

Mil - te he zin - da -  
gi me. Mu - ha - ba - t kha - bi kha - bi. Mil - te he zin - da - gi me.  
Mu - ha - ba - t kha - bi kha - bi. Ho - n he dil - ba - ro - ki  
I - na - ya - t kha - bi kha - bi.

*Milti hey zindagi me muhabat kabhi – kabhi  
Hoti he dilbaronki inayat kabhi – kabhi*

*Sharma se munh nopher nazar ke saval par  
loutti hey eyes mor ne e qismat kabhi – kabhi*

Qo'shiq ochiq xarakter kasb etuvchi, fa ioniy ladida yozilgan bo'lib, cholg'u qism bilan boshlanadi va shakl jihatidan murakkab tuzilishga ega.

Qo'shiqning umumiy ko'rinish tarkibi quyidagicha:

$A + E + B + C + E^1 + C + E^2 + C^2 + A$

$A + B + A + E + C + A + D + A + E^1 + D + A + E^2 + D^2 + A + A + B + A$

Asarning shakl tuzilish jihatlarini shakllanishiga g'azal baytlari, ularni soni va dramaturgik rivojlanish mezonining bevosita ta'siri bor. Asarning dramaturgik rivojlanish mezonida aytim qismi sekin – asta kulminatsion nuqta sari harakat qiladi. Cholg'u qismi esa unga bevosita qo'shilgan holda bog'lovchilik va tayyorlovchilik (keyingi qismi) vazifasini ham o'taydi. Cholg'u kuy qismi (E) individual xarakterga ega. Har safar u bir birini takrorlamaydigan aksincha asosiy mavzu rivojida hosil bo'lgan yangi ohanglar bilan keladi.

Latanning xonandalik faoliyatidan o'rin olgan yirik janrlardan biri bu ragaxonlikdir. U o'z ijodi davomida ushbu janrlarda qo'shiq kuylashi bilan bir qatorda ragalar asosida bastalangan qo'shiqlarni ham ijro etgan. Shunday qo'shiqlaridan biri «Baiju Baaivara» («Bavju Bavra») filmida «Vohe bhool gaue sanwarieaa...» qo'shig'i «Bhairav» ragasi asosida ishlangan. Bu qo'shiqning lirikasi Noushad<sup>47</sup> tomonidan yozilgan. Qo'shiqni og'ir bosiq akkordlar bilan ijro etish ko'zlangan. Lekin avvaliga sozandalar Bhairav ragasining tanpura cholg'usida akkordlar bilan chalinishiga norozilik bildirishadi. Lata bu qo'shiqni sozandalar bilan uch marta mashq qilgandan so'ng ovoz yozish studiyasida yoza boshlaydi. Lata yozuv jarayonida qattiq chtirosga berilib, qo'shiqdan (ohangdan) ta'sirlanib yig'lab yuboradi. Natijada qo'shiq yozuv jarayoni to'xtatiladi. Yozuv vaqtida ro'y bergan ruhiy holat shohidi bo'lib turgan kompozitor Noushad: «Bunday qo'shiqlar mening kuylarim orasida ko'p emas, balki bunga sabab Bhairav ragasininig teran mazmuni va xonandaning o'ta chtirosli xonishidir»<sup>48</sup> – deydi. (Tarj.)

47. Noushad Vaxid Ali – (1929.25.12.) kompozitor, 63 dan ortiq filmlar uchun qo'shiq yozgan.

48. Harish Bhimani «Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y., 153 b.

Raj Kapur tomonidan suratga olingan «Satyam Shivam Sundaram» (Haqiqat Shiva Go'zallik) filmida ijro etgan qo'shig'i alohida e'tiborga loyiq deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Uning boshqa filmlardan farqi, falsafiy-diniy janrga xosligidadir. Chunki, bizga ma'lumki, aksariyat hind kinolarining asosiy mazmuni «sevgi-muhabbat»ga qaratilgandir. Ya'ni ikki yoshning bir-biriga bo'lgan muhabbati, oldinda paydo bo'ladigan har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tadi va o'z muhabbati-sevgilisiga erishadi. Bu filmda esa Shiva ilohi madh etiladi va unga bo'lgan ilohiy muhabbat aks ettirilgan. «Satyam Shivam Sundaram» chuqur falsafiy muqaddima bilan boshlanib, asta-sekin sentimental voqealar girdobiga kirib boradi, voqealar yechimi yesa an'anaviy ezgulikning g'alabasi bilan tugaydi. Filmning falsafiy muqaddima bilan boshlangan kadrida «Satyam Shivam Sundaram» qo'shig'i ijro etiladi. Bu film juda katta mashhurlikka erishgan film bo'lib, O'zbekistondagi Hindiston Madaniyat markazida (2005 yil 25 may) Raj Kapur xotirasiga bag'ishlangan, hamda «Satyam Shivam Sundaram» filmining 27 yilligi nishonlandi. Chunki, ushbu filmning ilk premyerasi O'zbekistonda bo'lib o'tgan edi. Bu esa filmning mavqei yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi.

«Haqiqat – Shiva – Go'zallik» filmidagi qo'shiqlar ham Lata Mangeshkar tomonidan juda katta mahorat bilan ijro etilgan. «Satyam Shivam Sundaram» qo'shig'i filmida ijro etilgan qo'shiqlar orasida alohida e'tiborga ega. Chunki, bu qo'shiq raga yo'lida yaratilgan bo'lib, unda film mazmuni hamda qo'shiq nomidan kelib chiqqan holda Shiva<sup>49</sup> ma'budi ulug'lanadi. Qo'shiq alohida e'tiborga ega deyilishidan maqsad, bu qo'shiq ikki xil yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ya'ni Bhajan va raga yo'llaridir.

49. Shiva – muhabbat ilohi.

*Ishvar sathi hey sathi shiva hey  
Shiva hi sundar hey jahan sitare hon  
Jivan jo tujhe gari he  
Satyam shivam sundaram  
Ishvar sathi hey sathi shiva hey  
Shiva hi sundar hey.*

Asarning shakl tarkibi quyidagicha:

M A + D + B + D + C + Ya  
a + a + d + b + a + e + d + c + a +  
12t 7t 9t 5t 15t 4t 7t 4t 15t 4t 16t

A – naqorat; B va C bandlar; D cholg'u qismi.

Bu asar o'z ichida bhajan hamda raga yo'llarini mujassam etganligi uchun g'arb musiqiy shakllariga to'g'ri kelmaydi. Asar b-eolliy ladiga mos tushadi, unda minorning garmonik va tabiiy turlarini uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

Lata nafaqat o'z mamlakatida, balki G'arb va Sharq mamlakatlari ham o'z nufuziga ega bo'lgan xonanda sifatida shakllandi. U o'zining dardli ovozi, o'ziga xos benazir tembri bilan qanchadan-qancha tinglovchilarni o'ziga rom etgan. Lekin, u boshqa davlatlarga ijodiy safarlarini xonanda sifatida muqim o'z uslubiga erishib bo'lgach, o'zini ijrochi sifatida shakllanib bo'lganini sezgandan so'ng tashkil eta boshlaydi. Lataning G'arb davlatlariga bo'lgan birinchi ijodiy safari 46 yoshida 1974 yili Londonning Albert Xoll qirolligiga uyushtiriladi. Shundan so'ng u ijodiy faoliyatini Janubiy Amerika, Kanada, Dubay, Ispaniya kabi bir qancha boshqa mamlakatlarda namoyish etib keladi va muxlislari safini yanada kengaytiradi. Ijodiy safarlar har doim kutilmagan voqealar bilan kuzatiladi.

Shunday ijodiy safarlaridan biri Dubay davlatiga bo'ladi. Dubayda havo issiqligi +50 C° dan yuqori edi, lekin konsert kuni yomg'ir yog'ib havo haroratni tushirib yuboradi. Ochiq sahnada o'tirgan sozandalarning sovuqdan qotgan qo'llari kissalaridan panoj topar edi.

Lata o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga sharoit yaratgan edi. Shulardan biri, har gal qo'shiq ijro etishdan oldin asalli choy ichishni odat qilgan. Bu uning tomog'ini silliqlashda yordam berardi. Bu safar esa asalli choy har doimgidan ham issiqroq edi.

Konsert tinglovchilari orasida Pokistondan tashrif buyurgan muxlislari ham bor edi. Ular sahna ortiga kelib hindi tilida gapirishini iltimos qilishadi. Shunda Lata: «Hindi tilidami, sanskrit tilidami buni qanday ahamiyati bor? – deb taajjublanganida, ular – siz urdu tilini qanday yaxshi ko'rsangiz, biz ham sizning hindi tilidagi so'zlashuv talaffuzingizni shu darajada yaxshi ko'ramiz – deb javob berishgan»<sup>50</sup>.

1980 yilda Janubiy Amerikaning Gayana shahriga uyushtirgan Lataning navbatdagi ijodiy safarida esa, bir quvonchli voqea sodir bo'ladi. Bu yerda unga Gayana shahrining kaliti topshiriladi, hamda janubiy Amerikaning hurmatli fuqaroligi beriladi.

Uning bu yerdagi muxlislari o'zi o'ylaganidan ham ko'p edi. Latani kutib olish uchun xalq aeroportdan tortib to shahar ko'chalarigacha to'lib ketgan edi. U ijro etgan qo'shiqlar so'zlarini tushunmasada, uning

50. Raju Bharatan «A Biographe Lata Mangeshkar» New Delhi 1995 y, 174 b.



*Yuqorida: (chapdan o'ngga) Usha, Xreydanatr, Asha  
Pastda: (chapdan o'ngga) Lata, onasi Shevanti, Mina*



*Mina, Asha, Usha va Lata*



*Mumbay shahridagi konsertida. Lata, Ustoz Anjad Ali Khan,  
Pandit Hridayna Mangeshkar*



*«Lekin» film ijodkorlari. Kvartet: Vinod Khanna va Dimple.  
Lata va Hridayna Mangeshkar*



*Lata, Mehdi Hassan va Asha Bhonsle*



*Jacki Shroff, Lata, Rekha, Amrita Singh va Juhi Chawla*



*"Divana" kinofilmi uchun eng yaxshi qo'shiq ijrochilariga mukofot taqdirlash marosimida*



*Shoxruxan, Lata, Yash Chopra, Madkhuri*

dardli ovozi ularni maftun etgan bo'lsa ajab emas. Zero, qalbdan chiqqan kuy, ohang qalbgga yo'l ochadi va uning to'ridan joy oladi.

«Musiqani tushinishda til asosiy mezon hisoblanmaydi» deyishadi o'tmish mashoyixlari. Kuylanayotgan qo'shiq xoh yapon tilida, xoh nemis, xoh eron tilida bo'lsin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qalb tubidan chiqqan ja'miyki ohang – go'zaldir. Go'zallik esa, hech qachon insoniyatni befarq qoldirmaydi. Lata ijro etgan deyarli barcha qo'shiqlari nafis, go'zal va betakroridir.

Latanning bergan konsertlari 3 soatdan kam bo'lmas edi. Lataning onasi har safar, farzandlari endigina professional sahnaga qadam qo'yayotganida, sahnaga chiqish oldidan: – «Otangiz «yana bir marta» degan olqishlarsiz sahnadan chiqib ketmagan. Sizlar ham otangizni nomini saqlab qolishingiz uchun otangiz kabi yaxshi kuylashingiz ham qarz, ham shart»<sup>51</sup> – deb aytgan so'zlari Latani befarq qoldirmaganligini uning konsertlaridan bilib olish mushkul emas.

Lata har doim o'z konsert dasturini o'ziga xos mazmunda tuzadi. Uning dastur tuzish shakli boshqa xonandalarning konsert dasturidan farq qiladi. U har bir konsertini yaratganga bag'ishlangan qo'shig'i bilan boshlab, «E mere vatan ke logo» (Ey mening vatanim xalqlari) deb atalgan qo'shig'i bilan yakunlaydi.

U dunyodagi, hayotdagi har bir ish, har bir voqea «yuqoridan berilgan amr» deb qaraydi. Latanning familiyasi iloh Mangesh nomi bilan bog'liqligi ham bunga bir sababdir. U o'zining konsertlaridan birida:

– «Yaratganga shukrona va salovatlar keltiraman, chunki meni shu darajadagi mavqeimga ega bo'lishim uning sahiyligidandir» - deydi<sup>52</sup>.

Har bir ijodkor xoh u shoir, xoh u san'atkor bo'lsin, uning ijodiy repertuari bir nechta mavzularga bo'linadi. Ulardan biri «umuminsoniy qadriyatlar» mavzusida, aksariyat ijodini katta qismini egallaydigan «muhabbat» mavzusida va nihoyat, «Vatan» mavzusidagi asarlar joy egallaydi. Lata Mangeshkarning ijodiy faoliyati ham bundan mustasno

51. Harish Bhimani «Lata Mangeshkar» new Delhi 1995 y. 86 b.

52. Konsertining videotasmasi

emas. Uning qo'shiqlari, asosan, «muhabbat», «do'stlik», «Vatan»ni madh etuvchi qo'shiqlardir.

O'zi unib o'sgan vatan, o'z xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat barcha davrdagi taraqqiyparvar ijodkorlarning asosiy ijodiy yo'nalishlari bo'lib kelgan. Lata Mangeshkarni ham ana shunday san'atkorlar safiga qo'shish to'g'riroq bo'ladi. U qo'shiqlaridan birida vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini «E mere vatan ke logo» qo'shig'i orqali ham benazir shaklda ifodalaydi.

Biron bir asar dunyoga kelishi uchun, muayyan bir sharoit taqozosi sabab bo'ladi. U xoh badiiy asar, xoh rassom asari, xoh kompozitor tomonidan yozilgan kuy yoki qo'shiq bo'lsin. O'sha atrof muhitdagi voqeeliklar, albatta, o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu Vatanni madh etuvchi qo'shiqning paydo bo'lish sabablariga ham 1962 yilda Hindiston va Xitoy o'rtasida bo'lgan urush voqealari sababchidir. Qo'shiq xalqning vatanga bo'lgan mehru-muhabbat, sadoqat his-tuyg'ularini oshirish maqsadida ijro etilgan.

«E mera vatan ke logo» qo'shig'i Lata repertuarining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Uning har bir konserti bu qo'shiqsiz yakunlanmaydi. Qo'shiq so'zlari shoir Pradin qalamiga mansub bo'lib, musiqasini Ramchandr bastalagan.

Qo'shiq Yevropa musiqiy shakllari nuqtai nazaridan rondo shakliga yaqin bo'lib, qo'shiq naqorati refren tarzida, bandlari esa epizod sifatida cholg'u qismlari – bog'lovchi bo'lib keladi.

E me-re va-tan ke lo-go za-ra ank h me-bhar lo pa-ni. Jo-sha  
 hid hu-ye hey un-ki za-ra yad ka-ro kur-ba-ni. E me-re vatan ke  
 lo-go za-ra ank h me-bhar lo pa-ni. Jo-sha-hid hu-ye hey  
 un-ki za-ra yad ka-ro kur-ba-ni. Jab-

*E mere vatan ke logo  
 zara ank h me bhar lo pani.  
 Jo shahid huye hen unki  
 zara yad karo kurbani.*

Qo'shiqning tarkibiy shakl ko'rinishi quyidagicha:

A	ch	B	A	ch	C	A
a+a		b+c	a+a		d+c	a+a
8t 8t	2t	14t 6t	8t 8t	2t	8t 7t	8t 8t
ch		D	A			
		f+cholg'u+j		d1+a		
	4t	8t 2t 8t		8t 8t		

Latanning 1963 yil 27 martida bo'lib o'tgan konsertida muxlislari orasida davlat arbobi Javoharlal Neru<sup>53</sup> ham bor edi. Konsert oxirida Lata «E mera vatan ke logon» qo'shig'ini kuylaydi. Barcha tinglovchilarning ko'zlari yoshga to'ladi, shu jumladan, Neruni ham. Shunda u o'rimdan turib Latani quchoqlab: «qizim bugun siz mening ko'zlarimga yosh keltirdingiz» – deydi<sup>54</sup>. (Tarj.) va butun muxlislari orasida Latanning hurmati yanada yuqori darajaga ko'tariladi.

Hozirgi kunda bu qo'shiq madhiya darajasiga ko'tarilgan deyish mumkin. Chunki, bu qo'shiq yangrashi boshlagan jarayonda barcha tinglovchilar o'z o'rinlaridan turib tinglaydilar. Shunda insonlarning yuragiga Vatan tuyg'usi nafaqat filmlarda ijro etgan qo'shiqlari orqali, balki yaxshi musiqa orqali kirib kelishi mumkinligini yana bir bor ko'rgan Lata: «Meeribai» bhajanini, Mirzo G'olib<sup>55</sup> g'azalini va bir qancha qo'shiqlarini magnit tasmasiga tushirib tinglovchilarga taqdim etadi. Bundan tashqari, Seygalning ijodiga juda katta hurmat bilan qaragan Lata «Shraddhanjali» deb nomlangan audiokasseta chiqaradi. Ushbu audiokassetalar yuzaga kelgunga qadar filmlarda ijro etgan qo'shiqlari u yoki bu sabablarga ko'ra ekran yuzini ko'rmagan bo'lsa-da, lekin filmda ijro etilgan qo'shiqlar televidenie yoki radio orqali berilar edi.

53. Javoharlal Neru – 1947 yil 15 avgust Hindiston mustaqillikka erishganida birinchi bosh vaziri.

54. Harish Bhimani «Lata Mangeshkar». New Delhi 1995 y. 208 b.

55. Mirzo G'olib – ulug' Hind shoiri, urdu va forsiy tillarida ijod qilgan.

Shunday filmlardan biri «Nagin» (Ilon qiz) filmi raqslari tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Lekin, uni boshqacha yo'llarini izlab topishga uriniladi. Muammoni yechish uchun film qo'shiqlarini televideniye va radio to'lqinlari orqali tinglovchilarga havola etiladi. Shu yo'l bilan ko'zlangan natijaga erishiladi.

Ma'lumki, Lataning xonandalik faoliyatida kino san'ati juda katta ahamiyat kasb etgan. Hattoki, xonandalikning boshqa ijro yo'nalishlariga ham e'tibor berishga undagan. Ya'ni, aksariyat hind filmlaridan ma'lumki, unda yetakchi g'oyalardan biri - muhabbatdir.

Hind filmlarida ikki yosh bir biriga bo'lgan muhabbatini ko'proq qo'shiqlari orqali ifoda etiladi. Ikki qalb tuyg'ulari ohanglarda ifodasini topadi va uyg'unlashadi. Bu jarayon musiqada duet janri orqali amalga oshiriladi. L. Mangeshkar ijodiy faoliyatini deyarli yarimini duetlar tashkil qiladi desak adashmagan bo'lamiz.

«Duet – ital. «duetto» va lotin. «duo» so'zlaridan «ikki» ma'nosini bildiradi»<sup>56</sup>. Vokal asarlar uchun ikki ovozli, cholg'u jo'rligida yoki ikki ijrochidan tuzilgan ansambl tushuniladi.

Ikki xonandaning ovozi bir biriga mos bo'lgandagina - haqiqiy duet hosil bo'ladi. Ularning uslublari, hattoki tonlari bir biriga to'g'ri kelishi lozim. Lata ijro etgan duetlarda ham ushbu unsurlar mavjud. Lata ijodiy faoliyati davomida ayol va erkak xonandalar bilan duetlar ijro etgan. Ayol xonandalardan singillari Usha va Asha bilan ijro etgan duetlari mavjud. Erkak xonandalardan Manna Dey, Muhammad Rafi, Mukesh, Kishor Kumar, Maxendra Kapur, Udit Narayan, Bal Sabrimaniya, Kumar Sanu, Soni Nigam kabi xonandalar bilan duetlar kuylagan va kuylab kelmoqda.

Erkak xonandalar orsida Mukesh va Muhammad Rafi bilan ijro etgan duetlari Lataning ijodida alohida o'rin tutadigan va katta ahamiyat kasb etgan.

Mukesh – «Rajning ovozi» nomiga ega bo'lgan zabardast xonanda. Chunki, Raj Kapur<sup>57</sup> ijro etgan barcha rollardagi qo'shiqlarini Mukesh kadr ortida ijro etadi. Raj Kapur va Mukesh, Nargis va Lata-

56. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3 j. 2000 y

57. Raj Kapur – (1924.19.04-1988.02.06) Hindiston «Charli Chaplin»i nomini olgan aktyor, rejissyor, produser.

«tan va jondir», ya'ni, «tan» Raj va Nargis bo'lsa, ularga jon baxshida etuvchi Mukesh va Latadir. Ular ajralmasdirlar. Mukesh vafot etgandan so'ng «Rajning ovozi o'ldi» nomli maqolalar chop etilgan. R. Kapurning barcha kinofilmlarida Mukesh va Lata hamkorlikda ijod qilsalar, Muhammad Rafi bilan esa qolgan filmlarda ijod qiladi. Muhammad Rafi bilan birga «Toj Mahal» filmida ijro etgan duetlari ularining eng yuksak darajadagi duetlari deyilsa mubolag'a bo'lmaydi.

Muhammad Rafi va Mukeshning vafotidan so'ng Lataning duet ijrochiligi ancha vaqtgacha to'xtatiladi.



*Mukesh va Lataning ijodiy jarayoni*

Hozirgi kunda Lata yosh xonandalar bilan ijod qilishni davom ettirmoqda. Ular bilan birga yangidan yangi jozibali, dillarni rom etuvchi duetlar ijro etishmoqda. Lata tomonidan ijro etilgan har bir musiqiy namuna tomoshabinlar qalbini rom etib hozirgacha qalblardan joy olib kelmoqda.

Lata o'z hayotida doimo yetuk ijdokorlarni ardoqlab keladi. Yoshlarga nisbatan ham o'z munosabati bor. U zamonaviy, yosh kompozitor va xonandalar xususidagi quyidagi fikrlarini bildirgan edi.- «Ilgari har bir kuy o'z individulligiga ega edi. Buning sababi, menimcha o'sha vaqtda kompozitorlar bir birlaridan ajralib turish uchun o'z ustida ishlar va har biri unitilmas ohang, kuy yaratishga

58. Harish Bhirmani «Lata Mangeshkar». New Delhi 1995 y, 87 b.

harakat qilar edi. Hozir esa kompozitrlarni ijodiy faoliyatining mezonini o'zgardi. Hozir, filmlarga yaratilayotgan qo'shiqlar sifati bilan emas, soni bilan chegaralanayapti xolos»<sup>59</sup>.

Xonandalarning qo'shiqlarini magnit tasmlariga yozib olish jarayonida san'atga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkinligi xususida Lata intervyularining birida shunday fikrlarini qayd etadi – «Hozirgi vaqtga kelib, ovoz yozish studiyasida qo'shiq va unga jo'r bo'luvchi cholg'uchilar ijrosi alohida-alohida va bittama-bitta yozib olinmoqda. Oldin hindlarning sehrli urma chog'ulari, so'ngra skripka, undan keyin esa boshqa cholg'ular yozib olinmoqda. Shu darajaga yetib kelinganki, duetlar ham kamdan – kam birga kuylanib, ijro etilmoqda. Ilgari hech bir musiqani magnit tasmlarga yozilishi mashg'ulotsiz bo'lmas edi. Hozir ushbu so'zlarimga, odamlar kulishadi. Rejissyor bizga bu qo'shiq filmning qaysi joyida ijro etilishini va filmning dramatik rivoji xususida gapirib, bizni shunga tayyorlar edi. Undan so'ngina biz qo'shiqlarni yozib olar edik»<sup>60</sup>.

Lata qo'shiqlarni yozish jarayonida quloqdonni (naushnik) yopishi bilan musiqaning sehrli olamiga kirib ketgandek bo'lar edi. Xattoki, qo'shiqqa shu darajada berilib ketar ediki, nafaqat jismonan, balki ruhan xoldan toyib ish jarayonini, ya'ni studiyada qo'shiqni magnit tasmasiga yozishni to'xtatilishiga majbur bo'lar edi.

59. Shu kitobdan 89 b.

## § 2. Lata Mangeshkar va kino musiqasi

Kino-ma'lumki, sintetik san'at turlaridan biridir. Uyg'unlashish jarayonida esa bir qancha san'at yo'nalishlarini zabardastlik, monumentallik, ommaviylik va individuallik kabi hususiyatlarni o'zida ifoda etadigan janrlar bunyodga keladi. San'atlar orasida kino ana shunday monumental janrlardan biri sifatida gavdalangani barchaga ayondir.

Hind kinosi Sharq va G'arb xalqlari orasida o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. U fantaziya olamining oynasi – bir qancha vaqtgacha bo'lsa ham, tomoshabinni real xayotdan uzoqlashtirib, orzular olamiga chorlaydigan bir voqeelik sifatida shakllangan.

Ma'lumki, avval ovozsiz kinolar olina boshlangan. Unda kino san'atining ilk boshlanishi jarayoni, rasmlarni aksi bilan ifodalangan ko'rinish, ovozsiz harakatli obrazlar ifodasi bilan keyingi bosqichlar «subtitrlar» - ya'ni matnlarni qisqa yozuvi, ovozli va rangli tasvirli kinolar yaratila boshlangan. Kino san'ati qisqa vaqt ichida san'atlarning orasida eng ommaviylikiga erishgan. Xuddi shu jarayonni hind kino olamida ham kuzatish mumkin.

1913 yil 3 mayda Dhundraj Gavinda Phalke (1870-1944) tomonidan «Mahabhorat» dostoni asosida birinchi ovozsiz «Raja Xarishchandra» hind filmi yaratiladi. Vaqti kelib, ovozsiz kinolar davriga chek qo'yilib, ovozli kinolar ekranlardan joy oladi. Ana shu kino boshlangandan so'ng davr o'tib ovozsiz kino ham amaliyotda ovoz qo'shish uslublari bilan bog'lanib ketadi. Bu amal ekrandagi harakatlarni izohlash uchun, tomoshabinga tushunarli bo'lish uchun qilingan harakatlardir. Buning bir nechta uslublari bo'lgan, ya'ni filmlarni parda ortida sozandalar tomonidan jonli ijro etib turishlari, magnit tasmasiga yozilgan musiqalardan foydalanish, kadrlardagi aktyorlarga ovoz beruvchi dublyajchilarga xos ovozlarni bilan jo'r bo'lishlar va h.k.

1931 yil 14 mart kuni Ardeshir Irani<sup>60</sup> rejissyorligi ostida «Alam Are» («Dunyo go'zalligi») nomli Hindistonning ilk ovozli badiiy filmi

60. Ardeshir Irani (1986-1969e) «ovozli Hind kinosining otaxonini» nomini olgan rejissyor va produser.

Bombey shahrining «Madjestik» kinoteatrida ekran yuzini ko'radi<sup>61</sup>. Bu film kino san'atining navbatdagi yangi bosqichi edi.

40-yillarning o'zida har yiliga 100 ga yaqin filmlar ishlab chiqarila boshlandi. 50-yillari rangli kinolar paydo bo'ladi. Yildan yilga filmlarning texnik sifat darajasi rivojlanib boradi. Film syujetlarining doirasi muayyan yo'nalishda bo'lgan. Ularda, asosan, afsonaviy va vatanparvarlik mavzulari hukm surgan. Hozirgi kunga kelib esa nafaqat syujet turlari, balki, film turlari ham ancha ko'paygan. Jumladan: badiiy film, badiiy-tijorat film, ko'p qisimli film, hujjatli filmlar va h.k.

Hindistonning statistika axboroti bo'yicha bir yil mobaynida 800-1000ga yaqin filmlar suratga olinar ekan. Jahon miqyosida film ishlab chiqarish bo'yicha Hindiston Yaponiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.

Hindiston aholisining aksariyat qismi madaniy xordiq chiqarish uchun kinoteatrlarga borishni xush ko'radilar. Chunki kino boshqa madaniy xordiq chiqarish vositalaridan ancha arzon va qulay. Tomoshabin kinoteatrga kirar ekan, u ham kino, ham kichik konsert ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki har bir tomoshalarda film syujetiga mos turli jozibali musiqa namunalardan bevosita foydalaniladi. Bizga ma'lumki, musiqa insoniyat ruhiyatiga tez ta'sir etuvchi omillardan biri.

Kinomatografiya rivojlanishi tufayli 1940 - yillarga kelib ko'plab film ishlab chiqaruvchi kompaniyalar paydo bo'ldi. Kompaniyalarni paydo bo'lishi esa aktyorlarga bo'lgan ehtiyojni ko'paytiradi. Filmlarni muvaffaqiyatli chiqishi uchun esa iste'dodli aktyor va aktrisarlar bo'lmog'i lozim.

Ovozli filmlar paydo bo'lishi aktyorlar oldidagi vazifani hamda mas'uliyatni yanada ko'paytiradi. Chunki, ovozli filmlarda qahramonlar – kuylashlari lozim edi. Shuning uchun hind aktyorlari nafaqat yoqimli ko'rinishga ega balki, yoqimli ovoz sohibi bo'lishlari ham talab etila boshlandi. Lekin, vaqt o'tishi bilan bu talab o'z kuchini

61. Xalid Mohammed. «Kuryer». «Indiya ot proshlogo k budushemu». «Okno v mir fantasti», 1989y, mart.

yo'qotadi. Chunki, deyarli barcha go'zal tashqi ko'rinishga ega bo'lgan aktyor va aktrisarlar kuylash mahoratidan mahrum edilar. Bunday vaziyatdan chiqishning birdan-bir yo'li: «fonogramma»ga moslashish bo'ldi. Ya'ni aktyorlar o'z rollarini ijro etadi va raqsga tushadi, musiqiy qo'shiqlarni talqiniga kelganda esa ular faqat qo'shiq kuylayotgandek holatni aks ettirishadi. Qo'shiqlarni ular uchun professional ijrochilar ijro etadi.

Hind kinosi boshqa mamlakat kino mahsulotlaridan xuddi shu qo'shiq va raqslari bilan ajralib turadi. Kadr ortidan kuylovchi xonandalar aktyorlardan kam bo'lmagan mashhurlikka erishadi.

Kadr ortida kuylovchi xonanda sifatida mashhur bo'lgan, «Hindiston bulbuli» nomini olgan Lata Mangeshkar ham o'zining butun ijodiy faoliyatini musiqaga bag'ishlagan bo'lsa, kinomusiqa ular orasida asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgan.

Lata Mangeshkar ijro etgan qo'shiqlarning deyarli barchasi kino uchun ijro etilgan qo'shiqlar ekanligini e'tirof etish o'rindir. Chunki, alohida ijro etilgan asarlar ham tahlil qilinsa kinoga yozilgan bo'lib chiqadi.

Lata ilk bor sahnada xonanda sifatida emas, balki aktrisa-xonanda sifatida kirib kelganligini qayd etib o'tilgan edi. Uni sahnaga aktrisa sifatida chiqishi esa tasodifan ro'y beradi.

Lata 7 yoshga to'lganida otasi Dinanathning ijodiy safari tufayli oilasi bilan Manmad shahriga ko'chib keladi. Narad ismli aktyor betob bo'lib qolganligini eshitib, hamma vahimali holatga tushadi. Shunda Lata atasiga: – «Siz xavotir olmang, men Narad rolini ijro eta olishim mumkin. Men spektaklning dialog va qo'shiqlarini yoddan bilaman. Agar butun tomoshabin mening ijroimdan mamnun bo'lmasa, oxir - oqibatda sizning qizingiz emasman».<sup>62</sup> (Tarj.) deb ishonch bilan so'zlaydi.

Bu Lataning yoshligidan o'ta shijoatli, mas'uliyatli, qat'iyatli bo'lganligidan dalolat beradi. Otasi qizing bu qarorini qo'llab, faqat bu ishga ma'suliyat bilan yondoshish kerakligini uqtiradida, ruxsat beradi.

62. Harish Bhimani. «In search of Lata Mangeshkar». «Lata baha», New Delhi 1995, 70 b.

Hech bir voqeani tasodif deb bo'lmaydi, chunki o'sha tasodif inson hayotida qandaydir buriilish yasab, hayotida katta o'zgarishlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Latani tasodif yoki sharoit taqozosi bilan sahnaga chiqishi, bir umr sahnada aktrisa sifatida emas, xonanda sifatida qolib ketishi kimning hayoliga kelgan...?!

Lata ilk bor 1942 yili kino uchun qo'shiq ijro etadi. U bunda marathi tilda «Kiti Nasal» («Siz qanchalar kula olasiz») filmi uchun «Naachi ya gade Kheli saori maani haus bahavi» qo'shig'ini ijro etadi. Lekin bu qo'shiq baxtga qarshi filmdan o'rin olmay qoladi. Balki, bunga sabab otasining qizini bu ishga nisbatan samimiy bo'lmaganligi yoki qo'shiq ijrosidan qoniqmaganligidadir. Shunday bo'lsada, Lata film uchun ijro etgan birinchi qo'shig'i sifatida ta'kidlansa mublag'a bo'lmasa kerak.

Oradan, oz vaqt o'tgandan so'ng Shalini Cineton<sup>63</sup> kompaniyasi marathi tilidagi B.Bhandekar romani asosida «Mazha bal» («Mening bolam») filmdan yetim bola rolini 13 yoshli Lataga topshirishadi. Filmning kichkinagina fojeaviy sahnasida bolalar uyining kichik yashovchilari qo'shiq kuylab, tilanchilik qilishlari kerak edi. Ushbu sahnaga ko'p bolalar talab qilinardi. Vinayak sohib Mangeshkar oilasi moddiy tomonlama muhtojligini bilib moddiy ko'mak berish maqsadida, Lataning singillari Mina va Ashani ommaviy sahnaga kiritishni film rejissyoriga taklif qiladi.

«Ushbu sahna bizning hayotimizga mos edi. Chunki biz yaqindagina otamizdan ayrilgan edik,- deb keyinchalik shu damlarni yodga oladi Lata. Agar usta Vinayak yordam qo'llarini cho'zmaganida, balki biz ham «Mening bolam» da yozilgani kabi real hayotimizda ham buni boshimizdan o'tkazishga to'g'ri kelarmidi»<sup>64</sup>. (Tarj.)

Bu filmda yosh Lata ijro etgan dastlabki rollari va qo'shiqlari bo'lishiga qaramasdan, kino o'z muxlislarini topadi va tomoshabinlar tomonidan ijobiy baholanadi. Chunki, Lata ijro etgan yetim bola roli otasidan ayrilgan qizaloqning obrazini, ruhiyatini aks ettirar edi. Balki, shuning uchun ham Lataga topshirilgan rol, darhaqiqat, tabiiy va

63. Shalini Cineton – Hind kino ishlab chiqarish kompaniyasidan biri.

64. Harish Bhimani, «In search of Lata Mangeshkar», New Delhi 1995 y, 90 b.

ehtirosli chiqqandir. U xoh qo'shiq bo'lsin yoki rol bo'lsin, uni mukammal va iloji boricha a'lo darajada bajarishga harakat qilar edi. Uning shu xususiyatlari hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Ushbu filmdan so'ng Lataning ijodida yana bir bosqich boshlanadi. Lataning iste'dodini ko'rgan usta Vinayak o'zining «Bari Maa» («Katta ona») filmiga uni taklif qiladi.

Latani ijodkor sifatida shakllanishida usta Vinayak sohibning o'rni alohida e'tiborli. Chunki, Dinanathning vafotidan so'ng Vinayak sohib Latani filmlarda rol ijro etib, qo'shiq kuylashi uchun ham moddiy tomonlama, ham ijodini shakllanishiga katta yordam beradi. Kadr ortidan ijro etilgan qo'shiqlar ham Vinayakning filmlaridan boshlangan. Aynan mana shu davr Lata ijodining katta yo'lga chiqishida ilk bosqich edi.



Lata Mangeshkar ijro etayotgan rollaridan biri

Vinayak rejissyorligida sur'atga olingan «Bari Maa» filmida zabardast aktrisa-xonanda Nurjaxon<sup>65</sup> ona rovida, farzandi rovida Lata va boshqa kino yulduzlari Shivarlal, Sitara, Yoqub, Mila Mishra kabi aktyorlar ishtirok etadi. Britaniya hukumatining qonunlariga ko'ra, har bir prodyuser targ'ibotga yo'naltirilgan filmi sur'atga olishi shart edi.

Film jarayonida tanaffus vaqtida Nurjaxon Lataga qo'shiq kuylatar va uning xatolarini to'g'rilab «Agar doimo, muntazam ravishda shug'ullansa, kelajakda mashhur xonanda bo'lib yetishi-shini»<sup>66</sup> ta'kidlar edi.

Bu «Malikaye tarannum»<sup>67</sup> (Nurjaxon) va «Svar Samradiy»<sup>68</sup>

65. Nurjaxon – «Malikai - Tarannum» nomini olgan, pokistonlik xushovoz xonanda

66. «What celebrities say» «In search of Lata Mangeshkar» Harish Bhimani, N. Delhi 1995.316 b.

67. Urdu tilida «Kuylar Malikayi» ma'nosini bildiradi.

68. Hindi tilida «Kuylar Malikayi» ma'nosini bildiradi.

(Lata) o'rtasidagi do'stlikning boshlanishi edi. Lata xonanda sifatida shakllanish davrida Nurjaxonga taqlid qilardi. Chunki o'sha davrda Nurjaxon kabi mohir xonanda va ayniqsa, dardli ovozi sohibi yo'q edi.

1947 yilda davlatlarni bo'linishi sababli Nurjaxon Pokistonga o'tib ketadi va Lata Hindistonning «Malikae tarannum»iga aylanadi. Kino musiqasi ijrochiligida kadr ortida kuylovchi Amribay Karnataki, Shamshod Begim, Zuhra Begim, Raj Kumar, Sitara, Gita Datt, Mina Kapur kabi iste'dodli va mashhurlikda bir-biridan kam bo'lmagan xonandalar ham bor edi. Lekin bular orasida Lata yoqimli va dardli nafasi (ovozi) bilan ajralib turardi.

1947 yilda «Aap ki sewa Mein» («Sizning xizmatdagingizda») nomli hindi tilidagi filmi uchun Lata Mangeshkar o'zining birinchi hindi tilidagi «Pa lagoon kar jori...» qo'shig'ini ijro etadi. Lekin, bu Latani hindi tilida ijro etgan birinchi qo'shig'i 1943 yili marathi tilidagi «Gajabhau» filmida «Mata ek sapoot ki duniya badal de tu...» qo'shig'i bo'lgan. «Aap ki sewa Mein» hindi tilidagi filmining kompozitori Vasant Joglekar (kompozitor) bo'lib, Latani marathi tilida ijro etgan ilk qo'shig'i shu san'atkorga bag'ishlangan edi. Lata ijro etgan qo'shiq vatanparvarlik ruhida bo'lib, uning bu yo'nalishda ushbu ijro etgan qo'shiqlarining birinchisi edi.

Lata film ijodkorlari bilan birga o'z ijodiy faoliyatini davom ettirish uchun Bombay shahriga kelishadi. Bombay shahrida 1946 yili suratga olingan «Jeevan Yatra» («Jivan Yatra») filmi Lata uchun kino xonandachiligi faoliyatini keskin rivoj topishiga sabab bo'ldi. Chunki, filmdan so'ng kino kompaniyalar tomonidan Lataga tez-tez takliflar kela boshlaydi.

50-yillarning boshida hind kinosini jahonga mashhur qilgan, butun umrini kino san'atiga bag'ishda etgan zabardast aktyor, rejissyor



*Nurjaxon va Lata*

Raj Kapur Lataga murojaat etadi. U 1951 yili «Avara» («Daydi») filmi uchun qo'shiq ijro etib berishni taklif qiladi. Film juda muvaffaqiyat qozonadi. So'ngra ikki san'atkorning Raj Kapur va Lata Mangeshkarining ijodiy hamkorligi boshlanadi. Ular birgalikda «Nolish» (1953y.), «Poyafzal tozalash» (1954y.), «Janob-420» (1955), «Hushyor bo'b» (1956y.) kabi bir qator filmlarni yaratadilar. Lataning ovozi endi o'spirinlarning ovozi emas edi. U yanada ulg'ayib, sayqallanib, shaxsiy uslubiga ega bo'lishga ulgurgandi.

Ma'lumki, Lata yoshligidan xonanda Seygalni qo'shiqlarini juda yaxshi ko'rar va unga qaysidir ma'noda taqlid ham qilar edi. O'zini xonanda sifatida shakllanishiga qadar Seygal yo'lida ijro etgan. Bir qator filmlarda ko'pdan-ko'p qo'shiqlar ijro etish va ularda o'z uslubini shakllantirishga urinishlar o'z natijasini beradi. Sekin asta Lata hind musiqa ijrochiligi san'atida xonanda sifatida shakllana boshlaydi.

Lata Raj Kapur bilan birga «Barsat» («Yomg'ir fasli»), «Bobbi», «Ganga», «Sangam», «Bir kun – yuz afsona» kabi filmlarda hamkorlik qilishadi. Bu hamkorlik Raj Kapurning vafotigacha davom etadi. Shu davr davomida Raj Kapur tomonidan suratga olingan barcha filmlarni qo'shiqlarini Lata Mangeshkar ijro etgan. Raj Kapur o'z filmlarini Lataning qo'shiqlarisiz shuhrat qozona olmasligiga ishonar edi.

Hind kino olami tarixida buni ikki zabardast san'atkorlar Raj Kapur va Lata Mangeshkar ijodlarining uyg'unligi deb ta'kidlanadi.

Bu ikki mohir san'atkorlar hamkorligida paydo bo'lgan filmlar umrboqiy filmlarga aylangan. Bir necha o'n yilliklar o'tishiga



*Raj Kapur va Lata Mangeshkar-ijod jarayoni*

qaramasdan bu filmlar o'z tomoshabinlarini yo'qotgani yo'q. Ushbu filmlarni tomosha qilgan har bir tomoshabinning ko'zlariga yosh to'lishini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Albatta, filmda aktyorlarning o'rni beqiyosdir, ular ijro etayotgan har bir obraz ishonarli bo'lsaгина, u tomoshabin tomonidan ijobiy baholanadi va bu aktyor ular qalbidan joy oladi. Lekin, shu bilan bir qatorda hind kinofilmlarida xonandalarning o'rni ham katta ahamiyatga egadir.

Aktyorlar nafaqat ijro etayotgan roli bilan balki, o'zi ijro etayotgan qo'shiqlari bilan ham tomoshabinning qalbiga tezroq kira boshlaydi. Zero, musiqa bu schrli kuchdir. Xuddi shu jarayonda kadr ortida kuylovchi xonadandan juda katta mahorat talab qilinadi. Chunki, u nafaqat kuylashi, balki aktyor tomonidan ijro etayotgan obrazga kira bilishi ham lozim. Xonanda va aktyorning yurak urishi va nafas olishi bir xil bo'lishi taqozo etiladi. Bir so'z bilan aytganda, xonanda ham aktyordir. Ijodiy jarayon mobaynida xonanda va aktyor obraz yaratishda bir-birlarini to'ldiradi. Ya'ni, yaratayotgan obrazlarini tomoshabinlarga yetkazib berishda har ikkalasining hissalarini kattadir. Lata butun ijodiy faoliyati davomida bir qancha ayol aktrisalariga kadr ortida turib qo'shiqlar ijro etgan. Va qaysidir ma'noda ularni (aktrisalarini) mashhur bo'lishida o'z hissasini qo'shgan. Shu o'rinda aktrisa Xema Malining ushbu so'zlarini keltirish mumkin: «Men Lata Mangeshkarsiz obrazlarimni tasavvur qila olmayman. Chunki, Lata Mangashkar ijodiy hayotimda mening ikkinchi yarimim»<sup>69</sup>.

Lata Mangeshkar Madhubala, Mina Kumari, Nargis, Vijantimalia, Sadxana, Nanda, Sayra Banu, Mala Sinxa, Sharmila Tagor, Mumtaz, Xema Malini, Rekxa, Shridevi, Madhuri Dikshit, Kajol, Pritia Zinta kabi mashhur aktrisalariga kadr ortidan turib qo'shiq ijro etgan. Shular qatorida Raj Kapurning deyarli barcha filmlarida bosh qahramon obrazini yaratgan, minglab tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan Nargis bilan bir qancha filmlarda ijodiy hamkorlik qilishgan. Nargis Lata Mangeshkar haqida shunday deydi: «Men hech qachon Lata Mangeshkar tomonidan ijro etilgan mungli qo'shiqlarda his-hayajonni,

69. Lata Mangeshkarning videotasmaga tushirilgan konserti.

70. Harish Bhimani «In search of Lata Mangeshkar» New Delhi 1995y, 315 b.

ko'z yoshlarni paydo qilish uchun «glitserin» ishlatmaganman»<sup>70</sup>. Bu so'zlar Lata Mangeshkarni mohir xonanda ekanligidan dalolat beradi. U ijro etgan qo'shiq nafaqat aktrisa Nargis, balki barcha aktrisalarining ko'zlaridan haqiqiy ko'z yoshlari chiqishiga majbur qilgan va qilib kelmoqda. Shuning uchun ham Lata tomonidan kadr ortida turib ijro etgan har bir film, nafaqat badiiy dramaturgiyasi yoki syujeti, balki betakror qo'shiqlari bilan ham tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan.

Raj Kapur rejissyorligi ostida 1973 yili sur'atga olingan «Bobbi» filmi tomoshabinlarga taqdim etiladi. Bu film yosh tomoshabinlar uchun mo'ljallangan bo'lib, film tanqidchilar va tomoshabinlar tomonidan ijobiy baholanadi va 16 ta debyutga ega bo'ladi. «Santxaxik Hindustan» jurnalining 1977 yil iyun oyidagi sonida bosilgan maqolada «Film ko'pdan beri arosatda qolgan «RK filmz» studiyasining joniga oro kirdi va oldingi chiqimlarini ham barchasini qopladi. Hindistonda oltin yubileyini nishonlagan «Bobbi» chet el safariga otlandi» kabi fikrlar bayon etilgan. Bu maqola orqali film qay darajada mashhurlikka erishganligini bilib olish mushkul emas.

«1973 yili Raj Kapur xonadoniga «Bobbi» filmi baxt keltirdi... Esimda, film qahramonlari, ular aytgan qo'shiqlar hind yoshlari tilidan tushmadi...»<sup>71</sup>, ushbu so'zlar yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrimizga dalil bo'la oladi. Ushbu so'zlardan so'ng Lata Mangeshkar iste'dodi va mahoratiga yana bir karra iqror bo'lamiz.

Raju Bhartanning «Lata Mangeshkar biografiyasi» monografiyasida «Lata Mangeshkar filmlarida kadr ortida qo'shiq kuylashda monopoliyaga erishgan»<sup>72</sup> degan fikr keltiriladi. Darhaqiqat, kinofilmlarni musiqiy namunalar nuqtai nazardan ijro etish bo'yicha Lata eng ilg'or va yakkalikka erishgan san'atkordir. Chunki, deyarli barcha kinofilmlardagi qo'shiqlarni Lata ijro etgan. Shu bois bo'lsa kerak hind kino san'atida qo'shiqlar aytish bo'yicha monopoliyaga erishgan san'atkor sifatida e'tirof etiladi.

Har bir kino rejissyor, har bir kino musiqa kompozitori uning qo'shiqlarini faqat Lata Mangeshkar tomonidan ijro etilishini istar

71. N. Najmiddinov. «Hu men Raj Kapurman» Xotiralar qissasi. Toshkent, 1992y.

72. Raju Bharatan «Lata Mangeshkar a biography» New Delhi 1995 y, 384 b.

edilar. Buning birinchi sababi kompozitorlar Lata uchun qo'shiq yozishda qiynalmasligidadir. Chunki, uning ovoz imkoniyatlari katta, diapozoni esa ikki yarim oktavadan ortiq edi. Ma'lumki, kompozitor u yoki bu xonanda uchun qo'shiq yozar ekan, xonandaning ovoz imkoniyatlari va diapozonini, albatta, e'tiborga oladi. Ikkinchi sababi, film qahramonini sahnadagi ijrochilik holatlarini to'laqonli ifodalab berishga harakat qilardi. Aksariyat hollarda buning uddasidan chiqardi. U avvalom bor, film syujeti bilan tanishib, qahramonini xarakterini yaqindan bilib oladi va qo'shiqlari orqali uni yetkazib beradi. Lataning kino-xonandiligini egallashdagi eng ahamiyatli tomoni ham shundadir.

1948 yili kompozitor Shyam Sundar «Lahor» («Laxor») filmi uchun kuy va qo'shiqlar bastalaydi. Filmdagi ayol aktrisalariga kadr ortida qo'shiqlarni ijro etib berish uchun Lata Mangeshkar taklif etiladi. Lekin, Lata filmda Shyam Sundar yozgan qo'shiqlar ijro etilishini bilgach, qo'shiqlarni kuylashdan bosh tortadi. Buning asosiy sababi, kompozitor Shyam Sundar spirtli ichimlikka ruju qo'yganligida edi. Lataning I – bobda hayotidan berilgan ma'lumotlardan ma'lumki, u bu borada ma'lum sabablarga ko'ra bir qarorga kelgan. Shu sababli bo'lsa kerak Lata spirtli ichimlikka nisbatan salbiy tomonlama qaraydi.

Lata bu filmda qo'shiq ijro etmasligini eshitgan kompozitor «Agar bu qo'shiqlarni Lata ijro etmasa, boshqa hech qaysi bir xonanda ijro etmaydi va men bu filmdan barcha qo'shiqlarni olib tashlayman»<sup>73</sup> – deydi.

Film rejissyorining iltimosiga ko'ra, Lata bu filmdagi qo'shiqlarni ijro etishga oxir-oqibatda ko'nadi.

1949 yili Kamal Amrohi rejissyorligida «Mahal» («Maxal») filmi suratga olinadi. Bu film qo'shiqlari ijro etish uchun Lata Mangeshkar taklif qilinadi. Film kuy va qo'shiqlari kompozitor Khemchandr Prakash tomonidan yozilgan. «Mahal» filmida Lata ikkita qo'shiq ijro etadi. Bular, «Aayega aane wala» va «Mushkil bahoot mushkil» qo'shiqlaridir. Bu ikki qo'shiqlardan biri «Aayega aane wala» kinoni mashhur bo'lishida asosiy mezonlardan birini o'taydi. Lata «Aayega» qo'shig'i haqida shunday deydi: «Men hech qachon Khemchandr

73. Raju Bharatan «Lata Mangeshkar a biography» New Delhi 1995y, 145 b.

Prakashning «Aayega» qo'shig'ini yozib olish jarayonini unutmayman. Chunki, shu birgina qo'shiqni tasmaga yozib olish jarayoni 5 kun yozuv studiyasida davom etgan. Prakash har kuni qo'shiqqa yangidan-yangi o'zgartirishlar kiritardi. Sabr bilan qilingan mehnat o'z samarasiga ham ega edi. Natijada bu qo'shiq juda katta muvaffaqiyatga erishdi va «Mahal» nomi bilan xit darajasiga ko'tarildi»<sup>74</sup>.

Qo'shiq Yevropa shakllari nuqtai nazaridan rondo shaklida yozilgan. Bizga «musiqa asaralari tahlili» fanidan ma'lumki, rondoda refren va epizodlardan iborat bo'ladi. Bu qo'shiqda refren (A) davriya shaklida yozilgan. Epizodlar esa oddiy shakllardan tuzilgan. Cholg'u qismi refren va epizod orasida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Qo'shiq mi ioniy ladidada yozilgan bo'lib, badiha uslubida boshlanadi. Asarda qo'shiqning muqaddima vazifasini bajaradi.

74. Raju Bharatan «Lata Mangeshkar a biography» New Delhi 1995 y, 259 b.

A . . . O zamana Chupja sitare,  
 A ram se dunya dekar dil ki mere.  
 Ey janman ki ahat istaroh arahi hey  
 Jeyse ke khul rahi hen mani huyi  
 hamari yaden dharak rahe hen  
 Isar ke sahare ayega – ayega

Qo'shiqni yaxlit bir ko'rishda tasavvur etishdagi shakl sxemasi quyidagicha:

M	A	ch	B	A	ch	C	A							
a	ch	a	b+c+d+c			e+f+c								
27t	9t	6t	7t	3t	8t	8t	8t	4t	4t	8t	8t	10t	4t	9t

Bugungi kunda Lata Mangeshkarning hind filmlaridagi o'rni beqiyosdir. 1949 yilgi «Mahal» filmidan tortib, to 2003 yilgi «Muhabbateng» filmigacha bo'lgan har bir kartina va har bir qo'shig'i o'zining muxlisi va tinglovchisiga ega.

Jumladan, 1989 yili suratga olingan «Mee Pyar Kya» («Sizni sevsam maylimi») filmida ijro etilgan «Dil diwana» qo'shig'i hozirgi kungacha o'z tinglovchilarini yo'qotgani yo'q<sup>75</sup>.



Dil de - va - na dil saj - na - ke ma - ney - na -

Qo'shiq zamonaviy uslubda yozilgan asar. Sur'at jihatidan ehtirosli – o'ynoqi. Yoshlar muhabbatini kuylaydi. Ushbu qo'shiq murakkab uch qismli rondsimon shaklda yozilgan deyish mumkin. Chunki, bunda oddiy uch qismli va rondsimon shakllarning unsurlari mavjud. Agar qo'shiqni yaxlit holatda shakl sxemasi tahlil qilinsa,

75 Bu film 1998 y. O'zbekiston televideniyesi tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, O'zbekiston aholisiga taqdim etilgan edi. Bu film hozirgacha O'zbekistonda o'z mavqini yo'qotgani yo'q.

murakkab uch qismli shakl paydo bo'ladi: A + B + A. Agar sxemani parchalab tahlil qilinsa rondsimon shakl paydo bo'ladi. Refren A, epizodlar esa «c» va «e», «d» (Cholg'u qismi) harfi bilan belgilangan.

A	A	B	B
a + b	+d	+ a + b + d	+ c+e+a+b+c
			+ e+a+b +d
		A	
		a + b	

Asar re ioliy ladida yozilgan bo'lib, III va V pog'onalar tayanch vazifasini o'taydi va asar V pog'onada yakunlanadi.

Mangeshkarlar oilasi – san'atkorlar oilasidir. Bizga I – bobdan ma'lumki, Dinanathning barcha farzandlari musiqa olamida o'z o'rinlarini topgan san'atkorlardan.

Ular orasidagi eng kichik farzand Xreydanath musiqa olamida kompozitor sifatida voyaga yetgan va unumli, samarali faoliyat yuritib kelayotgan hind namoyandalardan biridir. U tomonidan yozilgan kuy va qo'shiqlar kinofilmlardan ham o'rin egallagan. Shunday filmlardan biri «Lekin» filmi bo'lib, film qo'shiqlarini, uning eng katta opasi Lata tomonidan ijro etilgan.

Xreydanathning «Yara sili-sili» qo'shig'i alohida e'tiborga ega. Chunki bu qo'shiq 1991 yili prezident mukofotiga sazovor bo'ladi va 4 marta «Filmfeyyar»ning «Eng yaxshi xonandasi» mukofotiga ega bo'ladi. (1958 y, 1962 y, 1965 y, 1969 y.).

Qo'shiq murakkab ikki qismli, ikkinchi qismi takrorlangan, kichik kadensiyali shaklda yozilgan. Kalit oldida ikkita belgi (si bemol va mi bemol) bo'lishiga qaramasdan, qo'shiqning tayanch notasi «fa». Bizga ma'lumki, «si bemol», va «mi bemol» belgilari B-dur, g-moll tonalliklarida uchraydi. Lekin, bu qo'shiqda xalq ladlarining uyg'unlashuvini kuzatish mumkin, ya'ni «fa» lidiy va miksolidiy.



Ya-ra si-li-si-li bu-ba ke rat ka-jal-na ya-ra si-li si-li

ya-ra si-li si-li ya-ra si-li si-li Dhola si-li si-li ya-ra si-li si-li



Yara sili sili birha ke rat kajalna  
 Yara sili sili dhola sili sili  
 Yara sili sili birha ke rat kajalna  
 Ye bhi koyi jina he  
 Ye bhi ko marna  
 Yara sili sili

Xonanda tomonidan bu asar mohirona ijro etilgan bo'lib, melizmlarga boydir. Lekin, biz ushbu nota yozuvida xonanda ijro etgan barcha melizmlarni notada aks ettira ololmadik. Chunki, hind musiqa notatsiyasi bizning 12 yarim tonli tovushqator tizimiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun melizmlarni maxsus belgilar bilan belgilashga majburiy. qo'shiqning shakl sxemasi quyidagicha:

A + B + B + koda  
 a+a+b+a+d + c+d+c+b+a2 +d+c+c+b+a3+d+  
 5t 5t 6t 4t 9t 4t 2t 4t 4t 7t 11t 4t 4t 6t 7t 4t 4t

Lata Mangeshkar kinofilmlar uchun ijro etgan qo'shiqlardan ayrimlari «oltin fond» arxivida saqlanadi. Bular:

- |         |                  |                                 |
|---------|------------------|---------------------------------|
| 1.1958y | «Madhumati»      | «Aaja re pardesi...»            |
| 2.1962y | «Bees Saal Baad» | «Kahin deep jale»               |
| 3.1965y | «Khandan»        | «Tumhi mere mandir»             |
| 4.1969y | «Jeene Ki Raah»  | «Aap mujhe achchhe lagne lagne» |

Lata Mangeshkar nafaqat aktrisa-xonanda, balki prodyusser hamdir. Uni bu ijodiy qirrasini balki butun ijodiy faoliyati kino olami bilan bog'liqligidadir. Chunki, ijodining u yoki bu qirrasini namoyon bo'lishi uchun atrof-muhitning ta'siri, albatta, kattadir.

Lata 4 ta film uchun prodyusserlik qilgan, bular:

- 1) 1953 yili prodyusserlik qilgan film, marathi tilidagi «Vadal» nomli filmi;
- 2) Xuddi shu yili hindi tilidagi S.Ramchandr bilan hamkorlikda «Ihaanjhar» filmi;
- 3) 1955 yili hindi tilidagi «Nanchan» filmi;
- 4) 1990 yili hindi tilidagi «Lekin» filmi. Bu filmlardagi barcha qo'shiqlarni Lata o'zi ijro etgan.



Naushad va Lata

## XOTIMA

Dunyoda o'zini namoyon etib, o'z ijrosi, uslubi bilan dong taratgan benazir xonanda ijodini o'rganib musiqa dunyosining rang – barang va naqadar sirli ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Benazir san'atkor Lata Mangeshkar hayoti va ijodi haqidagi fikrlarni muxtasar qilib, shuni aytish joizki, Lata eng yoshlik chog'laridan boshlab, xonandalikka har tomonlama moil ekanligini ko'rsata olgan inson. Shunga munosib bo'lishda esa otasining benazir sabog'ining va onasining doimiy nazoratiyu – duosini olishga muyassar bo'lgan. Oqibatda, haqiqiy va e'tiqodli hind xonandasi darajasiga erishadi. Uning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, xalqiga bo'lgan muhabbati, doimo u bilan hamkorlik qiluvchi ijodkorni-kompozitorni tushunib etishi va albatta – benazir sirli ovozi nafaqat hind xalqi orasida, balki butun dunyoga tanilishiga zamin bo'ldi.

Hindlarning «Karam-Dharam», ya'ni «Mehnat – ibodatdir» xalq maqoliga Lata butun ijodi davomida amal qilib keldi. Lata hech qachon mehnatdan qochmadi, soxta holat bilan qo'shiq aytmadi, doimo ota o'g'itlari bilan yashab – ijod etib kelmoqda. Uning benazirligi ham ana shu sof jihatlarning nafasatli uyg'unligida desak mubolag'asiz bo'ladi.

Latanning xonanda sifatida elga tanitgan bu kino san'ati ekanligini e'tirof etishimiz kerak. Chunki, Latani aynan yirik va jozibali ijrosi, hamda jahon xalqlari hayotiga kirib borishiga sababchi bo'lgan bu kino san'atidir. Shuning uchun Hindistonda «Malikaie tarranum» nomini olishida ham kino alohida ahamiyat kasb etgan. Xullas, kino yaratuvchilari uchun ham Lata ijod manbai sifatida xizmat qilgan.

Azal-azaldan ilm bilan shug'ullangan, amaliyot bilan shug'ullangan allomalar keng tafakkurga ega bo'lgan. E'tiqodli ijodkorlarning bir an'anasi mavjud, ya'ni ijodiy amalni u qaysi yo'nalishda bo'lmasin kirish qismida yaratganga shukuronalar bildirish uni esga olish va qaysidir ma'noda zikr etish asosiy mezonlardan biri hisoblangan. Bunga biz o'tmish allomalarning barcha asarlarida bunday xususiyatlar mavjud ekanligiga guvohi bo'lamiz. Amalni yakuni esa zamon bilan va unga bo'lgan munosabati bilan xarakterlandi. Latanning hayotida o'tkazgan barcha konsertlari mana shu an'ana negizida o'tkazilgan. Bu

uning o'tmishga sadoqat, dinga e'tiqod, xalqiga hurmat, kasbiga mas'uliyat bilan yondoshishini yana bir bor namoyish etadi.

Mashhur san'at namoyandalarining hayotini, ijodini o'rganish o'tmishdan bir soboqdir. Mashhurlikka erishishning yoki ilm o'rganishning, tafakkurning qadriga yetishning bir ko'rinishiga guvoh bo'linadi. O'tmish durdonasini avvalo o'zi o'zlashtirsa, kelajak avlodning kamoli uchun bir qatra sifatida xizmat qilish uchun umiddir. Lata Mangeshkarning bosib o'tgan hayoti va erishgan cho'qqilari har bir san'atkor uchun ibrat bo'lishi begumon.

San'at har tomonlama softlikni talab etadigan mo'jizadir. U xohlasa ko'klarga ko'taradi yoki aksi, xohlasa insonlarni turli tushkunli holatlarga tushiradi. Ham ijobiy ta'sir etadi, gohida aksi bo'lishi ham muqarrar. Lata Mangeshkarning ijodi esa, faqat ishq muhabbat, Vatanga sadoqat ezgulik va kelajakka chorlaydi.

Xonandaning butun ijodiy faoliyati davomida hozirgi kungacha erishgan mukofotlari juda ko'p. Jumladan:

- 11 yoshida u Laxorning «Pancholi Art Pichers» studiyasi har 3 yilda o'tkazadigan ko'rik-tanlovda 1-o'rinni egallaydi va 2 ta medal sohibiga aylanadi.
- Hindistonning nufuzli ta'lim muassasalaridan biri Mandesh Universitetining doktori faxriy unvoniga sazovor bo'lgan, Sagit Natak Akademiasining olimlari jamoasining a'zosi;
- Madxiya Pradesh hukumati Latanning musiqa san'atida qilgan xizmatlarini e'tiborga olib 1984 yildan boshlab «Lata Mangeshkar» mukofotini ta'sis etadi;
- 1980 yili Jorjtaun, Gayyana shahrining kaliti topshiriladi va Janubiy Amerikaning hurmatli fuqarosiga aylanadi;
- 1985 yilning 9 iyunida Lata Mangeshkar Kandesh shahriga tashrif buyurgani munosabati bilan «Osiyo kuni» deb e'lon qilinadi;
- 1987 yili unga Xyustonning Texas shtatini hurmatli fuqaroligi beriladi;

- 1989 yili Lata Mangeshkarning kino san'atining uzoq hayotiga qo'shgan samarali hissasi uchun «Dadasaheb Phalke»<sup>76</sup> oliy mukofoti topshiriladi.
- Marathi tilidagi «Wadal» («Vadal») 1953 yil, hind tilidagi «Lekin» (Lekin) filmlarida ijro etgan qo'shiqlari uchun «Filmfare» (Filmfeyar) ning «Eng yaxshi xonanda»si mukofotiga 4 marotaba (1958, 1962, 1965, 1969 yillar) ega bo'ladi. Shundan so'ng u yosh xonandalar ham ushbu mukofotga ega bo'lishni xohlagan holda bu mukofotni to'xtatishni iltimos qiladi.
- 1969 yili Padma Bxushan oliy davlat mukofoti sovrindori bo'lishga erishadi;
- 1992 yili Lata Sarasvati nomini olib 30.000 dan ziyod qo'shiq ijro etgani uchun jahonning Ginnes rekordlari kitobiga kiritiladi.



*1989 yilda Lata Mangeshkarning 60 yillik yubileyida Dadasaheb Phalke mukofoti Prezident R. Venkataraman tomonidan taqdirlanishida.*

76. D. G. Phalke (1870-1944) – birinchi ovozsiz hind filmini yaratgan rejissyor.

## ADABIYOTLAR

1. Бандионадхйай, Шринад. История развития индийской классической музыки. (Hindi tilida) Варанаси Индия 1976.
2. Виноградов. В.С. Индийская рага. Москва, 1976.
3. India Who, is who. 1991-92. INFA UPDATED UPTA DEC, 1991.
4. Najmiddinov N. Bu men – Raj Kapurman. Xotiralar qissasi. T., 1992.
5. Панна Шех. Индийское кино. Москва, 1956.
6. Raju Bharatan. Lata Mangeshkar a biography. New Delhi 1995.
7. Рагхава Р.Менон. Звуки индийской музыки. Путь к раге. Москва. «Музыка», 1982.
8. Рощан Далал. История Индии. Дехли, 2001.
9. Harish Bhimani. In search of Lata Mangeshkar. New Delhi 1995.
10. Синявер Л. С. Музыка Индии. Москва 1958.
11. Чайтанья Б. Дева. Индийская музыка. Музыка 1980.
12. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti 3 j., T., 2002. 5j., T., 2003.

## MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
I. LATA MANGESHKAR HAYOTI .....	5
II. IJODIY FAOLIYATI	
§ 1. Xonandalik faoliyati.....	14
§ 2. Lata Mangeshkar va kino musiqasi.....	33
Xotima.....	48
Adabiyotlar.....	51

**Nargiza Hamdamova**

**LATA MANGESHKAR**

*(Monografik ocherk)*

Muharrir Z.Nasullayev

Texnik muharrir M.Toshpo'latov

Kompyuterda tayyorlovchi B.Ashurov

24.05.2010-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.

Tayms garniturasi. Ofset bosma. Shartli b.t. 4,5.

Adadi 100 nusxa.